

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI
O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

RO‘YXATGA OLINDI:

№ _____

2020-y. “ ____ ” _____

«TASDIQLAYMAN»

SamDU o‘quv ishlari

bo‘yicha prorektori _____

prof.A.Soleyev

“ ____ ” “ ____ ” 2020-y.

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5120100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

**“Lingvistika nazariyasi va amaliy tilshunoslik”
fanidan (1-kurs)**

MA’RUZALAR MATNI

Tuzuvchi:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Jo`rayev Tolib

Samarqand -2020

1-mavzu: Til sistemasi va strukturasi: Tilning belgili va belgisiz xususiyatlari. Til belgilar tizimi sifatida

(2 soat)

Reja:

- 1. Til sistemasi va strukturasi**
- 2. Tilning belgili va belgisiz xususiyatlari**
- 3. Til belgilar tizimi sifatida**

***Tayanch soʻz va iboralar:** lingvistik belgi, monoletaristik, oqim, zid idealistik nazariya, tovush kompleksi*

Tilshunoslikda tilning belgilar sistemasi ekanligiga ikki xil yondashuv bor. Ularning birinchisi tilning belgilar sistemasi ekanligini umuman rad etadilar. Bu nazariya marksistik falsafaga zid idealistik nazariya sifatida baholanadi. Xususan, L.O.Reznikovniig dastlabki asarlarida bu nuqtai nazar yorqin aks etadi. Uning fikricha, tilshunoslikda agnostisizm birinchi navbatda, tilning belgilar sistemasi ekanligi hakidagi nazariyada ifodalanadi. Markscha-lenincha inʼikos nazariyasiga asoslangan dialektik materialistik taʼlimot agnostisizmning bu koʻrinishini keskin tanqid qilish lozimligini taʼkidlaydi. Lingvistik belgi haqidagi nazariya fayriilmiy nazariyadir. U tilshunoslikka eng zararli agnostik qarashlarning kirib qolish vositasidir, shuning uchun ham uni fosh qilish va rad etish zarur, deydi¹.

R. A. Budagov ham lingvistik belgi haqidagi nazariyani inkor etadi. U har qanday milliy til maʼlum ifodalar sistemasigina emas, balki bu tilda muloqot qiluvchilarning barcha faoliyatini oʻziga xos aks ettirish natijasi hamdir, deydi. Uning taʼkidlashicha, tilning belgili tabiati konsepsiyasi milliy tillar tabiatini va shu bilan birga lingvistikani ham nihoyatda kambaʼallashtiradi².

Lingvistik belgi nazariyasini inkor etuvchilarning hammasi lingvistik belgi tabiati haqidagi bir yoʻnalish – monoletaristik (belgining bir yoqlamaliligi) yunalishga nisbatan fikr yuritadilar. Belgini faqat shakldan iborat, degan fikrga asoslanadilar.

B.A.Serebrennikov toʻʼri taʼkidlaganidek, lingvistik belgi nazariyasini umuman rad ztuvchi olimlar ikki narsani – kommunikasiya vositasi sifatidagi lingvistik belgi tabiati va belgi-maʼno-narsa (hodisa) munosabati muammolarini

¹ Резников Л. О. Против агностицизма в языкознании.-Изв: АН СССР, ОЛЯ, Т. VII, вып. 5. С.401.

² Будагов Р.А. Борьба идей и направлений в языкознании нашего времени. М., 1978. С. 49.

aralashtiradilar.

Davrlar o'tishi bilan tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi nazariya asta-sekin e'tirof etila boshlandi. Lekin lingvistik belgi tuzilishi masalasida ikki xil oqim vujudga keldi.

Birinchi oqim tarafdorlari lingvistik belgi tuzilishiga faqat ifodalovchini kiritadilar. Xususan, Ye.M.Galkina-Fedorukning fikricha, tovush kompleksi obyektiv borliqdagi malum predmet haqidagi umumxalq tushunchasining ifodalovchisidir. Shuning uchun ham so'z orqali ifodalangan tushunchani emas, balki faqat so'zning tovush kompleksinigina belgi deyish mumkin. So'zning «ma'nosi»da ham «belgi»ni ko'rishning har qanday imkoniyatini mutlaqo yo'qotish kerak. So'z o'zining tovush sostavi bilan borliqdagi hodisalarning ongdagi in'ikosi bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi, shu bilan birga, tushunchalarni shakllantirib nomlaydi. Demak, so'z predmetlar kopiyasi ham emas, ularning belgisi ham emas³.

Ilgari lingvistik belgini mutlaqo inkor etgan L.O.Reznikov ham keyingi asarlarida bu nazariyani e'tirof eta boshladi va faqat tovush kompleksinigina lingvistik belgi deb hisobladi. U so'zning tovush tomoni moddiy xarakterga ega bo'lib, predmetga nisbatan belgi vazifasini bajaradi, deydi⁴. Uning ta'kidlashicha, ma'no predmetni bevosita emas, balki bilvosita – tovush tomoni orqali aks zttiradi, chunki borliqning umumlashgan ichki mazmuni faqat ikkinchi signal sistemasi orqali, ya'ni umumlashgan ma'noga ega bo'lgan tovushlar kompleksini talaffuz va qabul qilish jarayonida vujudga keladigan maxsus fiziologik aloqalar sistemasi orqali amalga oshirilishi mumkin⁵.

Bu konsepsiyaning aktiv tarafdorlaridan biri V.3.Panfilovdir. U bir butun til birligini emas, balki faqat uning material tomonini belgi deb hisoblash kerakligini, til belgisi ikki tomonli emas, balki bir tomonli mohiyat ekanligini ko'rsatadi⁶.

Belgining bir tomonlama ekanligini polyak tilshunosi L. Zavadovskiy quyidagicha ta'riflaydi: «Belgining ikki tomonlama tabiati tarafdorlari tayangan asos to'fri. Belgi, darhaqiqat, shuning uchun belgiki, u ma'noga ega. Lekin bundan belgi ikki elementdan tashkil topgan bir butunlik, kombinasiya degan xulosaga kelmaslik kerak. Axir bo' egasini kishi plyus bo' tarzida ikki tomonlama mohiyat sifatida talqin etishi kerakmi?».

V.M. Solnsev ham belgining bir tomonlama ekanligini ma'qullaydi. U to'fri ta'kidlagani kabi, ma'noni belgi tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik, boshqacha aytganda, belgining bir yoqlama yoki ikki yoqlama mohiyat ekanligini tan olish ko'p jihatdan ma'no tabiatini turlicha tushunishga bo'lik. Hozirgi kunda ma'noni ikki xil

³ Галкина-Федорук Е.М. Слово и понятие. М., 1956. С.21.

⁴ Резников Л.О. Неопозитивистская гносеология и знаковая теория слова. -Вопросы философии. 1962, № 2. С.100

⁵ А Резников Л.О. Ўша асар. С. 101.

⁶ Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. М., 1977. С.80.

tushunish mavjud:

1) munosabat turi sifatida (a) belgining ifodalanmish predmetiga munosabati, (b) tushunchaga munosabati va 2) ideal aks ettirish sifatida. Birinchi qarash bo'yicha belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashishga asos bor. Ikkinchi qarash bo'yicha esa – yo'q. Shuning uchun ham belgining ikki tomonli ekanligini himoya qiluvchilar belgi haqidagi ikkinchi qarashni tanqid qiladilar.

Ma'noni tushuncha bilan bir xil holda in'ikos kategoriyasi sifatida, ayni paytda, ong fakti sifatida tan olish ma'noni belgi tarkibiga kiritishga monelik qiladi va belgini bir tomonlama mohiyat deb qarashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'no ong fakti sifatida «ideal narsa» (harakat, belgi, miqdor va boshqalar), «aqliy predmetdir»⁷.

Ma'no «aqliy predmet» sifatida xuddi tushuncha kabi turlicha bo'lishi mumkin: a) tashqi olamning (turli darajadagi aniqlik va adekvatlik bilan) kopiyasi. Masalan, «daraxt» ma'nosi ongda konkret predmetlar sinfining, «yurmoq» ma'nosi real harakatlar sinfining aks etishidir; b) tashqi olamni buzilgan holda aks ettirish yoki ijodiy fantaziya natijasi: dev, suv parisi va boshqalar.

Ma'noning birinchi tipida *d-a-r-a-x-t* tovush qatori har qayday real predmetni aks ettirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu holda belgi, ya'ni *d-a-r-a-x-t* tovush qatori o'zidan tashqaridagi ma'lum narsa haqida ma'lumot beradi.

Belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashuvchilar, odatda, «daraxt» ma'nosiga ega bo'lgan belgi real borliqdagi predmetni ifodalash uchun xizmat qiladi, deyilar.

V.M. Solnsev talqiniga ko'ra esa *d-a-r-a-x-t* tovush qatori, ya'ni belgi eng avvalo, ma'noga, aqliy predmetga, «umuman daraxt»ga ishora qiladi, shuning uchun u har qanday konkret «daraxt» bilan muvofiq kelishi mumkin. «Aqliy predmet», «aqliy harakat», ya'ni umumlashmalar ortida real predmetlar, harakatlar turadi va bu umumlashmalar har qanday holda belgi bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkinchi tipdagi ma'noda esa (dev, suv parisi) real predmetlar bo'lmaganligi uchun belgi (tovush qatori) fantaziya mahsuloti sifatida faqat ongda mavjud bo'lgan «aqliy predmet»largagina ishora qiladi.

Uning fikricha, belgi ishora qilgan narsa belgi tarkibiga kirmasligi kerak. Ma'no ong fakti, miya vazifasi sifatida faqat kishilar ongida mavjud bo'ladi. Belgi esa moddiy predmet sifatida insondan tashqarida yashaydi.

Ma'no belgidan ajralmasdir. Lekin ayni paytda, u to'liq belgiga teng emas.

Belgining ikki tomonlamaliligi konsepsiyasida ma'no belgining ifodalanayotgan predmetga munosabati sifatida talqin qilinadi. Belgining bir

⁷ Каранг: Ветров А. И. Семиотика и ее основные проблемы. М., 1968. С. 74; Солнцев В. М. Языковой знак и его свойства. –ВЯ. 1977, № 2. С.17.

tomonlamaliligi konsepsiyasida esa ma'noga munosabat sifatida yondashuvning to'fri emasligi ta'kidlanadi⁸.

V. M. Solnsevning fikricha, ifoda va ma'no birligi til birligini hosil qiladi. Masalan, so'z, morfema. Uning ta'kidlashiga ko'ra, til birligi haqida gap ketganda, albatta, uning sostaviga ma'noni qo'shish kerak. Til birligining ma'nosida shu tilda so'zlashuvchi xalqning tajribasi aks etgan. Til birligi bir butun sifatida o'zining ma'nosi orqali tashqi olam bilan bo'lanadi. Til birligi bir butun sifatida belgi emas. U belgi va ma'nodan tashkil topgan.

Ayrim olimlar ong elementlarini ham belgi hisoblash tarafdorlaridir. Sovet tilshunosligida bunday fikrni dastlab V.N.Voloshinov o'zining "Marksizm va til falsafasi" asarida (1929 yil) o'rtaga tashladi. Hozirgi kunda bunday qarash A.A.Ufimseva, N.D.Arutyunovalar tomonidan olfa surilmoqda. Xususan, A.A.Ufimseva borliqdagi predmet va hodisalarning ideal aks etishi belgilar dunyosini vujudga keltiradi, deydi⁹.

N.D.Arutyunova esa "Grammatik sistemaning minimal birligi haqida" maqolasida til ikki belgilar sistemasidan iborat, degan xulosaga keladi. Biri tovush belgilaridan iborat bo'lib, tushunchani ifodalaydi, ikkinchisi esa borliqdagi predmet, hodisalarni aks ettiruvchi tushunchalardan tashkil topadi¹⁰.

Ikkinchi oqim vakillari esa belgining ikki tomonlama mohiyatidan kelib chiqib, uni ifodalovchi va ifodalanmish birligidan tashkil topgan, deydilar (Kasseri, Rassel, Sossyur, Vandriyes, Sepir, Yelmslev, Blumfild, Vigotskiy, Voloshinov, Serebrennikov va boshqalar).

F.de Sossyur "Umumiy lingvistika kursi" asarida belgini ifodalovchi (akustik obraz) va ifodalanmish (tushuncha) birligi sifatida talqin etadi. Fanda bu oqim "bilateralistik oqim" nomi bilan mashhur bo'ldi. B.A.Serebrennikovning fikricha, belgining ikki tomonlamaliligi konsepsiyasi haqiqatni to'friroq aks ettiradi. Chunki ma'nodan tashqari belgining bo'lishi mumkin emas. Tovush qobirini ma'nodan ajratish katta metodik xatodir¹¹.

Belgining monolateralligini yoqlovchilar ma'noni borliqning aks etishi, belgi orqali ifoda qilingan obyektiv fakt deb izohlaydilar. Shu bilan birga, borliqning in'ikosi bo'lgan tushuncha ham mavjud. U holda in'ikos etishning bu ikki turi o'rtasida, ya'ni ma'no va tushuncha o'rtasida qanday farq bor? Ye.M.Galkina-Fedoruk tushunchani mantiq kategoriyasi, ma'noni esa lingvistik kategoriya ekanligini ta'kidlaydi¹². Lekin B.A.Serebrennikov ko'rsatganidek, bu ikki hodisaning yuqoridagi kabi farqlanishi nutqda bir vaqtning o'zida ikki xil aks ettirish

⁸ Солнцев В.М. Ўша асар. С.19.

⁹ Общее языкознание. Формы существования языка. М., 1970. С.181-182.

¹⁰ Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. М., 1969. С.44-45.

¹¹ Серебренников Б.А. Ўша асар. С.76.

¹² Галкина-Федорук Е.М. Слово и понятие. М., 1956. С.82.

mavjud ekanligini tushuntirib berolmaydi. Ye.M.Galkina-Fedoruk tomonidan so'zning leksik ma'nosi so'zlashuvchi kollektiv tomonidan borliqning u yoki bu hodisasi bilan bo'lanishi sifatda talqin qilinadi.

Darhaqiqat, tushuncha va ma'no o'rtasida katta farq bor. Predmetning in'ikosi inson ongida tabiiy ravishda ro'y beradi. Predmet belgilarining umumlashmasi sifatida predmet obrazi gavdalanadi.

Tovush kompleksi va reallikdagi predmet o'rtasida dastlab hech qanday aloqa mavjud bo'lmaydi. Bu yerda aks ettirish deb nomlanishi mumkin bo'lgan hodisa yo'q. Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi aloqa inson tomonidan o'rnatiladi.

Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi bunday shartli munosabat bo'lganda tovush kompleksi ko'rsatish, ishora qilish vazifasini bajaradi. Ma'no tushunchadan farqli ravishda doimo hosil qilinadi, tabiiy asosda kelib chiqadi.

B.A.Serebrennikov ma'no va tushunchani bir-biridan farqlagan holda, ma'noni in'ikos kategoriyasi ekanligini inkor qiladi. uning ta'kidlashicha, shartli va sun'iy ravishda tiklangan aloqaga hech qachon aks ettirish sifatida qarash mumkin emas. Aslida ma'no – bu tovush kompleksining tushuncha bilan inson tomonidan o'rnatilgan shartli aloqasi¹³. P.V.Chesnokov ham ma'no munosabatda mavjud emas, faqat shu munosabatda hosil qilinishni ta'kidlaydi¹⁴.

I.P.Susov fikriga ko'ra, ifodalanmishning tildagi qarama-qarshi a'zosi bir butun belgining barcha tomoni emas, balki uning faqat bir tomonini – substansional tomoni sanaladi. Belgining bu tomoni uning ifodalanmishidir. Demak, ifodalanmish belgining faqat bir tomoni substansional tomonini tashkil etadi. Belgining boshqa tomoni ma'no hisoblanadi. Ma'no til ifodasining tidan tashqaridagi ifodalanmishga munosabatini ko'rsatadi. Bunga muvofiq, ma'no til substansiyasiga funksional qo'shimcha sifatida ishtirok etadi, substansiyaga hayot barishlaydi, belgining substansional va funksional tomonlarini bir butun sifatida shakllantiradi.

A. A. Ufimseva lingvistik belgi ma'nosini aniqlashning murakkab ekanligini, chunki lingvistik belgining bir vaqtning o'zida bir qancha funksiyada kelishini ta'kidlaydi. U belgi shaklining ifodalanmish bilan munosabati ikki tomonlama ekanligini ko'rsatadi: 1) ifodalanmishning belgi shakliga munosabati; 2) ifodalanmishning predmetga (obyektiv faktga) munosabati. Bulardan birinchisi ma'no, ikkinchisi esa ifoda hisoblanadi. Belgi ma'nosining shakllanishida o'zaro bo'langan yuqoridagi uch qism (belgi-predmet haqidagi tushuncha-predmet) ma'lum darajada aks etadi. A.A.Ufimseva o'z fikrini yanada konkratroq, qilib, ma'noni belgi vaziyati qismlari o'rtasidagi alohida munosabat sifatida xarakterlash mumkinligini ko'rsatadi. Belgi bilan ifoda predmeti o'rtasidagi alohida

¹³ Серебренников Б.А. О материалистическом подходе к явлениям языка. М., 1983. С.71.

¹⁴ Чесноков П.В. Основные единицы языка и мышления. Ростов, 1966. С.64.

munosabat ostida inson orqali yuzaga chiqadigan aloqa tushuniladi¹⁵.

Shunday qilib, belgi ma'nosi obyektiv qatordagi ifodalanmish bilan ham, subyektiv qatordagi ifodalanmish denotat bilan ham teng emas. Ifodalanmish belgidan va tildan tashqarida qoladi. Ma'no esa belgining bir tomonini tashkil etadi va til maqomiga ega bo'ladi.

Bizning nazarimizda, belgining bir yoqlamaliligi va ikki yoqlamaligi muammosi ma'noga ikki xil yondashuv bilan bo'liq. Belgiga bir yoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in'ikos jarayonini uch bosqichdan iborat deb talqin qiladilar: narsa-narsa belgilarining umumlashmasi, narsa obrazi, ya'ni narsa haqidagi tushuncha- akustik xossa (ifodalovchi). Ikkinchi bosqich-narsani aks ettirish bosqichi, ong fakti belgidan tashqarida qoldiriladi. Bu bosqich borliqdagi narsani aks ettirish bosqichi sifatida belgiga ikki yoqlama mohiyat deb yondashuvchilar tomonidan ham belgi tarkibiga kiritilmaydi. Bu jihatdan yuqoridagi ikki oqim hamfikrdirlar. Lekin ikkinchi oqim tarafdorlari in'ikos jarayonini uch bosqichga emas, balki to'rt bosqichga bo'ladilar. Ma'no bilan tushunchani bir-biridan farqlaydilar: narsa-tushuncha-munosabat (ma'no)-akustik xossa (ifodalovchi). Bunga muvofiq, ifodalovchi bilan narsaning umumlashgan obrazi, ya'ni tushuncha o'rtasidagi munosabat ma'no sanaladi. Shuning uchun ham ma'no belgi tarkibiga kiritiladi.

Biz ushbu ishda belgining ikki tomonlamaligi haqidagi qarashni ma'qullaymiz va in'ikos jarayonini to'rt bosqichli ekanligini z'tirof etamiz. Lekin ma'noni boshqacha talqin etamiz. Bunga muvofiq, lingvistik birlikning mohiyati moddiy tomoni bilan (belgi bilan) roya tomoni (ma'no)ning birligidan iboratdir.

I. P. Susov ma'no mohiyatini anglash va uning xarakterini belgilash uchun ifodalovchi va ifodalanmish tahliliga tayanish kerakligini aytadi¹⁶. Ifodalanmish ma'no (смысл), semantik predmet (signifikat), real predmet (denotat)larning birligidan iborat. Ma'no semantik predmetning aj-ralishiga asos bo'lgan belgilar majmuasidir. Belgilar majmuasi bilan ajraladigan aniqlanuvchi predmet semantik predmet hisoblanadi. Masalan, to'ra so'zi o'zida quyidagi besh belgini (semani) mujassam etgan ma'nodan iborat: 1) erkak jinsiga ega bo'lgan shaxs; 2) qarindosh; 3) o'gaylik belgisi bo'lmagan qarindosh; 4) nisbiy qarindosh (ona orqali), 5) bir avlod katta. Yuqoridagi belgi asosida ajraladigan shaxs to'ra so'zining semantik predmeti sanaladi. Semantik predmet ham obyektiv borlikqing aks etishini kursatadi. Semantik predmet real predmetning ong'dagi in'ikosi sanaladi. Yuqoridagi to'ra so'zi obyektiv reallikdagi ong'dan tashqarida mavjud bo'lgan, real predmetni aks ettiradi. Semantik predmet ham, real predmet ham ifodalanmish tarkibiga kiradi. Ular o'rtasidagi farq shundaki, birinchisi aks ettiruvchi, ikkinchisi esa aks etuvchi

¹⁵ Каранг: Общее языкознание. Формы существования, функции, истории языка. М., 1970. С.124-125.

¹⁶ Сусов И.П. Семантическая структура предложения. Тула, 1973. С.7.

hisoblanadi. Semantik predmet semantik belgilar. semalar-kon'yunksiyasi orqali, denotat esa (agar u turdosh ot bo'lsa) real predmetlar diz'yunksiyasi orqali, ajratiladi. Bu jihatdan atokli va turdosh otlar denotati bir-biridan farq qiladi. Atoqli otlar denotati obyektiv borliqdagi yol'riz predmetlar bo'lsa, turdosh otlar denotati esa borliqdagi real predmetlar diz'yunksiyasidir.. Shunday qilib, nomlash nazariyasi so'z, semantik predmet, real predmet (denotat) va ma'no bo'lishini taqozo qiladi. Tilshunoslikda quyidagilar haqida fikr yuritishga to'fri keladi: 1) tabiiy til so'zi hakida; 2) bu so'zning semantik ishtirokchilari, ya'ni material olamning inson ongida aks etishi va so'z orqali ifodalanishi haqida; 3) inson ongida aks etadigan va so'z orqali ifodalanadigan obyektiv olam predmetlari, hodisalari haqida¹⁷. Denotativ ma'no inson ongidan tashqarida bo'lgan obyektiv olamdagi narsa, hodisalar va ular o'rtasidagi aloqalarning ongda aks etishidir. Semantik predmet bilan real predmet o'rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchisi aks etadi, ikkinchisi aks ettiriladi¹⁸. Signifikativ ma'no denotativ ma'noga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega. Chunki olamni bilish jarayonida obyektiv olam elementlarining eng muhim belgilari inson ongida aks etadi va ongda aks etgan obyektiv olamdagi bir qancha narsalar, hodisalar haqidagi bu psixofiziologik substrat til belgisi orqali ifodalanadi. Anglashiladiki, lingvistik belgining asosiy qismi bir vaqtning o'zida ham denotativ, ham signifikativ ma'noga ega bo'ladi. Bunday vaqtda lingvistik belgining denotat bilan aloqasi signifikat orkali ro'yobga chiqadi. Bunga muvofik. til quyidagi uch hodisani o'zida mujassamlantiradi: 1) material olam hodisasi sifatida belgini; 2) obyektiv olamni aks ettiruvchi ideal hodisani; 3) mavjudligi ideal hodisaga va uning belgisining mavjud bo'lishiga bo'lik, bo'lmagan obyektiv borliqni. T. P. Lomtevning takidlashicha, lingvistik belgining mohiyati belgi va uning ma'nosining (signifikat) konvensionalligini emas, balki obyektivligini e'tirof etishdir. Belgi ma'nosi va obyekt o'rtasida aks ettirish munosabati mavjud. Ko'p hollarda signifikat obyektiv olamda korrelyati bo'lmagan, inson tomonidan sun'iy ravishda hosil qilingan obrazni bildirishi mumkin: xudo, dev, pari va boshqalar. Bu vaqtlarda belgida olam qiyofasini ong tomonidan ijodiy to'ldirilgan xayoliy predmetlar aks etadi. Bunday predmetlar yol'ron denotat (psevdodenotat)¹⁹ deyilishi mumkin.

Bilishning dialektik nazariyasi inson ongidan tashqarida, unga bo'lik bo'lmagan obyektiv olam va bu obyektiv olamning inson ongida aks etishini e'tirof qiladi. Insonning obyektiv olam haqidagi bilimlari tabiiy til belgilari asosida shakllanadi va ifodalanadi. Lingvistik belgining obyektiv reallik bilan munosabati yuzasidan tilshunoslikda ikki xil yo'nalish mavjud: 1) bavosita va 2) bevosita munosabat.

¹⁷ Ломтев Т. П. Общее и русское языкознание. С.17.

¹⁸ Сусов И.П. Ўша асар. С.7

¹⁹ Ломтев Т.П. Ўша асар. С.17

Birinchi yo'nalish tarafdorlari in'ikos prinsipiga tayanadi. Lingvistik belgi obyektiv reallik bilan bevosita emas, balki ong orqali bo'lanadi. Tabiiy til belgisining ma'nosi obyektiv olamdagi aks ettirilgan fikriy «narsalar»dir.

Dialektik falsafaning bilish nazariyasi asosida obyektiv olamning mavjudligi va uning inson ongida aks etishi yotadi²⁰.

Ko'p hollarda ma'lum obyektiv faktga obyektiv olamda haqiqiy predmet tarzida ham, xayoliy predmet tarzida ham korrelyati bo'lmagan obyektiv momentlar qo'shiladi: modallik, predikativlik, emosional-ekspressiv baho va boshqalar. Natijada obyektiv fakt murakkab subyektiv obrazning faqat bir qismini tashkil qiladi. Bunday momentlarning bo'lishi signifikativ ma'noni ham ikki qismga bo'lishga olib keladi: 1) denotatga muvofiq keladigan referent ma'no (markaziy ma'no): 2) referent ma'no ustiga qo'shilgan modifikasion ma'no (chegara ma'no).

Aksariyat lingvistik belgilar semantik strukturasi denotativ va referensial signifikativ ma'nolardan yoki denotativ, referensial signifikativ hamda modifikasion signifikativ ma'nolardan tashkil topadi. Bu belgilar o'zicha nisbiy mustaqil qo'llana oladigan avtosemantik xarakterga egadir. Ayrim belgilar borki, ular faqat modifikativ ma'noga ega bo'lib, nisbiy mustaqil qo'llana olish imkoniyatiga ega emas. Ular birinchi tipdagi belgilar bilan birga qo'llaniladi. Sinsemantik xususiyatga ega.

Shunday qilib, denotativ hamda referensial signifikativ ma'no lingvistik belgi semantik strukturasi asosini tashkil qiladi²¹.

Ma'no aks ettirmaydi, faqat tushuncha aks ettirish xususiyatiga ega. Ma'no esa tovush kompleksining predmet yoki hodisa bilan inson tomonidan o'rnatilgan shartli aloqasidir.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Til sistemasi va strukturasi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tilning belgisi va belgisiz xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Til belgilar tizimi sifatida qanday namoyon bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.

²⁰ Сусов И.П. Ўша асар. С.7.

²¹ Сусов И.П. Ўша асар. С.10.

4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

2-mavzu: Til va nutq antinomiysi: Sotsial va individual nutq faoliyati

(2 soat)

Reja:

- 1. Til va nutq antinomiysi**
- 2. Sotsial nutq faoliyati**
- 3. Individual nutq faoliyati**

Tayanch soʻz va iboralar: til, nutq, perseptiv, nominativ, signifikativ, obyektivlik va subyektivlik antinomiysi

Til va nutq. Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, oʻzicha alohida fan deb tanilgan davrlardayoq til bilan nutqni farqlashga eʼtibor berilgan edi.

Maʼlumki, til oʻziga xos strukturaga ega boʻlgan sistemadir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda boʻlgan ikki element (birlik) dan tashkil topgan. Bular leksika va lugʻat sostavidir. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat boʻlgan materiyaga ega.

Tilning lugʻat sostavi.

Lugʻat sostavi shu tilda mavjud boʻlgan barcha aktiv va passiv soʻzlar yigʻindisidan iborat.

Ayrim olingan soʻzda uch narsani ajratib analiz qilish kerak. 1) tovush tomonini; 2) atamalik xususiyatini; 3) tushuncha ifodalash xususiyatini.

Tilshunoslikda mana shu uch xil xususiyat asosida ayrim olingan soʻzning uch xil funksiyasi ‘aqida gapiriladi. Bular:

- 1) perseptiv (idrok qilish) funksiya;
- 2) nominativ (atash) funksiya;
- 3) signifikativ (maʼno anglatish) funksiya.

Ana shu uch belgiga ega boʻlgan birlik soʻz deb ataladi.

Yuqorida aytganimiz tilning uch tomoni - uch asosiy elementi bir tilda faqat nutqda reallashadi. Nutq yoʻq vaqtda ularning taqdiri nima boʻladi? Nutqdan oldin va keyin til elementlari, yuqorida aytilganidek, xotirada saqlanadi.

Xotirada saqlangan so'zlar, morfemalar, fonemalar obrazidan nutq tuziladi.

Til bilan nutq orasidagi dialektik munosabat shundan iboratki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi, nutq til elementlaridan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi, til elementlari yana nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. F. de Sossyur: "Avval nutq faoliyati yuz beradi, undan til yuzaga keladi, tildan nutq 'osil bo'ladi'" - deydi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, nutqning struktura elementlariga so'zning grammatik formalari (glossemalar), ularning negizlari, erkin so'z birikmalari, nutq tovushlari kiradi.

Til bilan nutqni qiyoslaganda ularni quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bir-biridan ajratib turadi:

1. Til aloqa materiali - nutq esa aloqa formasidir.
2. Tilni xalq yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.
3. Tilning 'ayoti uzoq, xalq 'ayoti bilan bog'liq, nutqning 'ayoti qisqa, u aytilgan vaqtda mavjud.
4. Tilning 'ajmi noaniq - nutqning 'ajmi aniq: dialog, monolog shakllarida bo'lishi mumkin.
5. Til turg'un, statik 'odisa, nutq harakatda bo'luvchi dinamik 'odisa.
6. Ayrim shaxsning ayni zamonda bir necha tili bo'lishi mumkin, ya'ni bir necha tilni bilishi mumkin, chunki u vaqt va o'rin bilan bevosita bog'lanmagan. Ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.

Shunday qilib, tilning ijtimoiy mo'iyati quyidagilardan iborat:

1. Til tabiiy 'odisa emas.
2. Til biologik 'odisa emas.
3. Til irqiy 'odisa emas.
4. Til sinfiy 'odisa emas.
5. Tilning paydo bo'lishi uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart.

Demak, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan o'ziga xos ijtimoiy 'odisadir.

V.Gumboldtning til va nutq antinomiyasi, ularning farqlanishi, til va nutqning dialyektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo'shilgan juda katta hissa bo'ldi.

4. Nutq va tushunish antinomiyasi. Til va nutq antinomiyasiga bevosita aloqada bo'lgan ushbu dialyektik bog'liqlikda, «birlikda» nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli shakllaridir, nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. Ya'ni so'zlar individ nutqidagina - nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma'noga ega bo'ladi.

Nutq tashqi, bevosita ta'sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo'lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

5. Til holati va taraqqiyoti antinomiyasi. Tilning statikligi (turg'unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiyasi. Til taraqqiyotining tugallanganligi va til taraqqiyotining to'xtovsizligi antinomiyasi. Til tugal tashkil topgan va ayni vaqtda doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi - tashkil topishiga ko'ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, «o'sishdagi», yangi - yangi birliklarning, shakllarning paydo bo'lishidagi «qaynayotgan» jarayondir.

6. Tildagi obyektivlik va subyektivlik antinomiyasi. Til obyektiv, ayni vaqtda subyektivdir.

Til o'zining haqiqiy «hayotini» insonlar orasida qo'llanishidagina topsada, ammo uning mavjudligi, «hayotiyli» alohida shaxslarga bog'liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan inson tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, o'zlashtirsa - obyektiv ravishda, ikkinchi tomondan, uning o'zi doimo tilni yaratadi, yangidan «quradi», barpo qiladi. Har gal individ nutqida til birliklari, vositalari, til «xom ashyosi» harakatga kyeladi, jonlanadi – subyektiv ravishda.

7. Fikrni obyektivlashtirish va fikrni rag'batlantirish antinomiyasi. Ushbu antinomiyada til tinglovchi fikrini obyektivlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi, yuzaga kyeltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo'ladi.

Til subyektda paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, ryeallashtiradi, umumga yetkazadi – ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini byeradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash subyektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs – tinglovchi nutqni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

V.Gumboldt asarlarida tilning so'z va grammatik qoidalaridan iboratligini, til birligi bo'lgan so'zning esa tushunchani ifodalaydigan byelgi, ramz ekanligini to'g'ri qayd etadi.

U har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

V.Gumboldt lisoniy ta'limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta'limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir.

V.Gumboldt ta'limotiga ko'ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishidir. Ya'ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistyema sifatida namoyon bo'lishidir. Ya'ni har bir til elyemyenti, birligi boshqa elyemyentga ko'ra mavjuddir, u bilan o'zaro

bog'liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog'liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning matyariyasi, xom-ashyosidir, uning tovush sistyemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir.

Nutq tovushlari muayyan ma'no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo'llanadigan, ishlatiladigan shaklidir.

Tilningn ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda obyektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ikki formasi haqidagi ta'limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog'laydi. Ya'ni ichki forma xalq ruhining qandayligini ko'rsatadi hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir.

V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta'limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g'oya bilan bog'laydi. Ya'ni u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning konkryet tarixiy taraqqiyotiga bog'liq shart - sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o'zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog'liq holda tushuntirmaydi. Balki tilning ichki formasini, tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo'lmagan, yetarli darajada aniqlanmagan, o'rganilmagan ruhiy ibtidoaning namoyon bo'lishi bilan tushuntiradi. Aniqrog'i, V.Gumboldt nyemis faylasufi I.Kant kabi ongini, ruhni alohida mavjud bo'lgan ibtido dyeb, biladi va uni obyektiv mavjud bo'lgan moddiy tabiatga bog'liq bo'lmagan hodisa dyeb, izohlaydi. Shu ta'limotdan kyelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat dyeb, ta'riflaydi va til ruhga xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanadi, dyeb biladi. Uning fikricha, tilda xalqning ma'naviy qiyofasini aks ettiradigan ma'lum bir dunyoqarash ifodalanadi. Boshqa tilni o'rganish bilan go'yo dunyoqarash ham o'zgaradi. Shu fikr asosida V.Gumboldt tilning «ichki formasi» haqidagi ta'limotini yaratadi. «Ichki forma», uning fikricha, bir tomondan, xalqning ruhi qandayligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, so'z yasalishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi dyeb, so'zning nutqda qo'llangandagi qiyofasini so'zning grammatik formasi dyeb, ta'riflaydi. Uning bu fikrlari hamda «ichki forma» haqidagi ta'limoti, ayni ta'limotning idyealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar umum tilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning ko'pgina lingvistik g'oyalari XIX va XX asr tilshunosligining rivojiga jiddiy ta'sir qildi.

Xullas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy -tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot usuli bo'lgan qiyosiy-tarixiy myetodga asos

solgan bo'lsalar, V.Gumboldt umumiy nazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Til va nutq antinomiysi deganda nimani tushunasiz, izohlang.
2. Sotsial nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Individual nutq faoliyati faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

3-mavzu: Til birliklari tavsifi va tasnifi: Til birliklarining adabiyotlardagi talqini

(2 soat)

Reja:

1. Tilga tizim sifatida yondash
2. Til birliklari tavsifi va tasnifi
3. Til birliklarining adabiyotlardagi talqini

Tayanch so'z va iboralar: lisoniy birlik, til tovushlari, fonetika, leksema va morfema

Tilga tizim sifatida yondashib, til qurilishining asosiy birliklarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Til qurilishining asosida yotuvchi birliklar sifatida *til tovushlari* ta'kidlanadi. Til tovushlari til birliklariga qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi. Til tovushi birlamchi qurilish birligi sifatida til birliklaridan tub leksemaga, tub morfemaga ifoda jihati bo'ladi. Faqat ifoda jihati bo'lishini nazarda tutib til tovushi bir jihatli birlik deyiladi.

Til tovushining ikki holati – lisoniy birlik holati va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismida mavjud ramzga teng bo'lib, ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborat bo'ladi. Masalan, *u* tovushi haqida "ovozdan iborat", "og'iz bo'shlig'i tor holatda", "tovush hosil bo'lish oralig'i til yuzasining orqa qismida", "lablar aktiv qatnashadi" kabi axborat bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miyadan *u* tovushini aytish haqida "ko'rsatma" (impuls) berilsa, tovush hosil qilish a'zolari shu tovushning ramzida mujassamlashgan axboratga binoan harakatga kelib, ko'rsatma asosida ma'lum holat egallaydi va o'pkadan ma'lum zarb bilan chiqarilayotgan havo oqimi nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Miyadagi til xotirasi qismida shu tildagi barcha til tovushlarining ramzi bo'ladi, bu ramzlar shu tildagi tovushlarning artikulyatsion bazasini (nutq a'zolarini tovush hosil qilishga jalb etish ko'nikmalari yig'indisini) tashkil etadi. Boshqa tilga mansub tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi bunday tovush uchun miyaning til xotirasi qismida maxsus ramzning yo'qligi bilan izohlanadi. Bunday begona tovush uchun miyaning til xotirasi qismida ramz paydo bo'lsa, shundan keyin-gina bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishga erishiladi. Masalan, o'zbek tili tovushlar tizimiga turkiy til sifatida sirg'aluvchi *j* tovushi xos bo'lmagan, eroniy til egalari bilan uzoq muddat birga yashash, doimiy muloqotda bo'lish natijasida bu tovush *ajdar*, *mujda*, *gijda* kabi til birliklari tarkibida o'zbek tiliga qabul qilingan, natijada bu tovush uchun miyaning til xotirasi qismida alohida ramz paydo bo'lgan.

Til tovushi o'zicha ma'no bildirmaydi, ma'no bildiradigan til birliklariga ifoda jihati bo'lib xizmat qiladi.

Til tovushlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi tilshunoslik sohasiga *fonetika* deyiladi.

2. Asosiy, birlamchi til birliklari – *leksema* va *morfema*. Bulardan leksema yetakchi, morfemani o'ziga qo'shib oluvchi birlik, morfema esa tobe, leksemaga qo'shib keluvchi birlik.

Til birligi bo'lish uchun bir butunni tashkil qiluvchi ikki jihat - ifoda jihati va mazmun jihati mavjud bo'lishi lozim. Leksemaning, morfemaning ifoda jihati bo'lib til tovushi xizmat qiladi, shunga ko'ra bu til birliklari segment til birliklari deyiladi (lot. *segmentum* - 'qism', 'parcha'). Leksema va morfemaning mazmun jihati asosini ma'no (leksik ma'no va grammatik ma'no) tashkil etadi. Masalan, *qo'l*-

leksemasining ifoda jihati bo'lib *q*, *o*, *l* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi; mazmun jihati asosini 'gavdaning yelkadan boshlanib, barmoq uchigacha davom etadigan qismi' ma'nosi tashkil etadi; *-di* morfemasining ifoda jihati bo'lib *d*, *i* tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qiladi, mazmun jihatini 'aniq yaqin o'tgan zamon' ma'nosi tashkil etadi.

Leksemani o'rganuvchi tilshunoslik sohasini *leksemika* deb nomladik (Adabiyotlarda *leksikologiya* deb yuritiladi). Morfemani o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga *morfemika* deyiladi.

Leksemaning, morfemaning til birligi sifatida ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axboratdan foydalanish qoidalari ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Til tovushi leksema uchun, morfema uchun qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi, lekin til tovushi bilan leksema, morfema orasidagi munosabatni ierarxik (pog'onali) munosabat deb bo'lmaydi, chunki leksema, morfema til tovushlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan emas, balki ma'lum bir tovushga, tovushlar qatoriga ma'lum bir mazmunni birkiritish yo'li bilan hosil qilingan.

3. Tom ma'nodagi pog'onali munosabat leksema va morfema bilan bularni qo'shib tuziladigan birlik – *leksemashakl* orasida mavjud. Leksemashakl – birlamchi tuzma birlik. Leksemashakl lisoniy birlik sifatida modeldan (qolipdan) iborat; bu qolip leksema va morfema bilan to'ldiriladi, natijada leksemashakl talaffuz birligi - nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi, ana shu holatida moddiy birlikka, segment birlikka aylanadi. Masalan, ot leksemashakl tuzish qoliplaridan biri "leksema + sonlovchi + turlovchi" shakliga ega; ana shu qolipni *bola-* leksemasi, *-lar*, *-ni* morfemalari bilan to'ldirib, *bolalarni* leksemashakli tuziladi. Demak, leksemashakl lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik holatida segment birlikka aylanadi.

Leksemashakl qaysi leksema asosida tuzilsa, o'sha leksema mansub turkum nuqtayi nazaridan biror sintaktik vazifa bajarish uchun yetarli darajada grammatik shakllangan bo'ladi, shunga ko'ra leksemashakl birlamchi sintaktik birlik deyiladi.

4. Navbatdagi pog'onali munosabat leksemashakl va leksema bilan ularning sintaktik bog'lanishi natijasida tarkib topadigan *birikma* orasida voqe bo'ladi. Birikma ikki a'zoli bo'lib, o'zbek tilida tobe a'zo leksemashakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi.

Birikma tushuncha anglatish uchun xizmat qiluvchi sintaktik birlik bo'lib, shunga ko'ra nominativ birlik deyiladi, shu jihati bilan leksemaga o'xshaydi.

Birikmaning asosiy vazifasi – predmetni, predmetning harakat-holatini ma'lum bir belgisi bilan birgalikda anglatish: *sifatli mato-*, *derazaning ko'zi-*, *tez yugur-* kabi.

Birikma – tuzma birlik; lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi qolipga teng, ana shu qolip leksemashakl va leksema bilan to'ldirilganidan keyin segment birlik holatiga o'tadi, o'z tabiati va sintaktik vazifasiga binoan ma'lum grammatik shakl olib, birikmashaklga aylanganidan keyin talaffuz birligi sifatida nutqiy birlik bo'ladi.

5. Tilning eng muhim birligi – *gapshakl*, chunki fikr gapshakl bilan anglatiladi. Lisoniy birlik sifatida gapshakl miyaning til xotirasi qismida qolip holatida mavjud; ana shu qolipdagi axboratga binoan talaffuz birligi sifatida hosil qilingan nutqiy birlikka *jumla* deyiladi.

Gap uchun qurilish ashyosi bo'lib leksemashakl ham, birikmashakl ham xizmat qiladi, lekin bu yerda pog'onali munosabat yo'q: predikativlik ko'rsat-kichlari bor leksemashakl, birikmashakl gaplik (predikativ) intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapga teng holatga o'tadi. Masalan, *ketdi* – fe'l leksemashaklga teng; predikativ ko'rsatkichlarga ega ushbu leksemashakl gaplik intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa, gapshakl holatiga o'tadi. Demak, gap lisoniy birlik sifatida supersegment birlik bo'lib, nutqiy birlik sifatida segment birlikka aylanadi.

6. *Frazema* – tabiati murakkab til birligi. Mazmun jihati bilan leksemaga tenglashsa, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng. Lekin til birligi sifatida birikmadan, gapshakldan farqli holda qolipning o'zidan iborat emas, balki aniq leksemashakl, leksema bilan to'ldirilgan bo'ladi, shunga ko'ra frazema segment birlik deyiladi.

Asli frazema mazmun jihati bilan ham leksemadan jiddiy farqlanadi: *ammamning buzog'i – lapashang*, *oshig'i olchi – ishi yurishib turibdi* kabi.

Yuqorida til qurilishiga mansub olti til birligi haqida dastlabgi ma'lumot berildi. Darslikning bo'limlarida bu til birliklarining tabiati birma-bir bayon qilinadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Til qurilishining asosiy birliklarini qanday tasniflash mumkin?
2. Til birliklari nimalarni kiritish mumkin?
3. Til birliklarining adabiyotlardagi talqini qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.

3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

4-mavzu:Lisoniy strukturalar: Distributiv, opposition, transformatsion, generativ yondashuvlar

(2 soat)

Reja:

1. Distributiv va opposition yondashuvlar

2. Transformatsion yondashuv

3. Generativ yondashuv

Tayanch soʻz va iboralar: lisoniy struktura, distributiv, opposition, transformatsion, generativ

Distributiv tahlil usulida til va nutq birliklari (fonema, morfema, leksema, soʻz va soʻz birikmalari)ning joylashish oʻrni, oldinma-ketin kelishi, oʻzaro bogʻlanishi va semantik-stilistik munosabatga kirishuvi oʻrganiladi. Bunday tahlil tilshunoslikda deskriptiv yoʻnalish deb atalib, uning asosini distributsiya yoki distributiv metod tashkil etadi.

Unda tillarni oʻrganish 2 bosqichda amalga oshiriladi:1) lingvistik birliklar aniqlanadi; 2) ushbu birliklarning bir-biriga nisbatan distributsiyasi, joylashuvi belgilanadi. Distributsiya lisoniy birliklarning nutqda qoʻllanish, joylashish oʻrni, boshqa unsurlar bilan birika olish qobiliyati, yaʼni potentsialdagi qurshovi boʻlib, uning morfologik, leksik-semantik, sintaktik turlari bor.

- Morfologik distributsiya - bu bir soʻz turkumini boshqa soʻz turkumlari bilan munosabatga kira olishidir (sifat va ot, ravish va feʼl, artikllar va ot va hakozo). Bunda morfemalar aniqlanib, ularning aloqalari talqin qilinadi, izohlanadi.

- Leksik-semantik distributsiya - til elementlarining mano jihatidan oʻzaro aloqa qilish qobiliyatidir.

- Sintaktik distributsiya - gap boʻlakarining bir-biriga nisbatan joylashuvi va munosabatidir.

Tilda birliklarni qismlarga maʼnoli qismlarga ajratish segmentatsiya deyiladi.

Valentlik tahlil usulida soʻzning nutq faoliyatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini oʻrganish, uning maʼnoga bogʻliq imkoniyatlarini yoritish masalalari oʻrganiladi. Bunda soʻzning oʻz maʼnosi asosida boshqa soʻzlar bilan semantik munosabatga kirishuvi, ulami oʻziga biriktirish xususiyatlari oʻrganiladi, soʻzlar orasidagi semantik munosabat bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltirishi, yaʼni semantik sintagmalar sintaktik konstruksiyalarni hosil qilishi aniqlanadi. Ushbu metod har bir soʻzda valentlik imkoni mavjud boʻlishi va u sintaktik aloqada yuzaga chiqishi, valentlikning nutqda - soʻzlar orasidagi turlicha bogʻlanishlarda, yaʼni xususiyliklarda namoyon boʻlishi tahlil qilinadi. Sistemaviy fonologiya hozirgi davr tilshunosligida mavjud boʻlgan fonologik nazariyalarning zarur va ijobiy jihatlari negizida yaratilgan boʻlib, unda keng qoʻllanuvchi oppozitsiya va distribusiya metodlari ayniqsa muhimdir. Tildagi birliklar piradigmatik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan pozisiyalar sifatida qaraladi. Bunda "oppozitsiya" atamasi (faqatgina ziddiyatni emas, balki sistemaviy oppozitsiyani ifodalaydi. Til birliklari sintagmatik jihatdan qaraganda, ularning Turli oʻrinlarda turlicha variantlarda "joylanishi" distribusiya metodi yordamida aniqlanadi. Oppozitsiya turlari: farqlaning (differensiasiya), korrelyasiya va aloqa (relyasiya) Praga Tilshunoslik maktabi (N.S. Trubetskoy, 1960) tomonidan taklif "Utilgan. Distribusiya turlari: erkin distribusiya, qarama-qarshi (kontrast) distribusiya, toʻldiruvchi va qoʻshimcha toʻldiruvchi distribusiyaning AQSHI tilshunoslari (Z. Harris, 1951) birinchi marta qoʻllaganlar. Qizigʻi shundaki, fonologik oppozitsiya va qarama-qarshi (kontrast) distribusiya bir-birlariga tashqi jihatdan juda oʻxshasht koʻrinadi, biroq oppozitsiya paradigmaticaga, distributsiya esa, sintagmaticaga tegishlidir.

Tilning fonologik sistemasi turli va bir xil bir-biri bilan shartlangan va bogʻliq boʻlgan elementlardan tuzilgan, Fonologik struktura. esa, mavjud elementlar oʻrtasidagi ichki funksional aloqalar qanday hosil boʻlgani bilan aniqlanadi. Sistemaviy fonologiyaning poydevorini struktural, substant va funksional jihatlar tashkil etadi. Fonologik birliklarning (fonema, boʻgʻin, urgʻu, intonasiya) . qanday hosil boʻlishi, yaʼni substant jihati funksional va struktural jihatlar oʻrtasida alohida oʻrin egallaydi. Tovun substansiyasi baʼzi fonologik nazariyalar, tomonidan eʼtiborga olinmay kelingan edi. Biroq substant jihat bir-biriga bogʻliq boʻlgan artikulyasion, akustik va eshitib his qilisi (persektiv) aspektlarni qamrab oladi. Tilning fonologik sistemasida faqat talaffuz emas, balki eshitib his qilish (persektiv) farqlanishi yetakchi hisoblanadi (Lindblom B., 1991). Tilning akustik jihati fonemalarni aniqlashda doim ham hisobga olinmaydi. Aslida, oʻtkazilgan tajribalar shuni koʻrsatadiki, fonema va akustik signal oʻrtasidagi aloqa ularning alohida hosil boʻlmasligini ifodalaydi. Eshitib his etish talaffuz bilan birga amalga oshiriladi (Fronkiny.A. 1976). Fonologik vositalar substansiya va ifoda shaklining bir-biriga

ta'siri natijasida sistemaga birlanadi. Bu bog'lanish struktural tilshunoslikda hisobga olinmagan edi. Fonologik birliklarning struktural, substant va funksional jihatlarini bir-biridan uzilgan holda tadqiq etish sistemaviy tamoyilni buzadi. Insonning talaffuz imkoniyatlari ancha murakkab va turlicha jarayonlarning bog'lanishiga bog'liq, masalan, bo'yinning boshqa nutq mexanizmlari bilan bog'lanishi natijasida faqat alohida nutq tovushlari emas, balki boshqa turli prosodik vositalar (faringalizasiya, glottalizasiya, aspirasiya va h.k) hosil bo'lishi mumkin. Ko'pincha fonetikaga doir adabiyotlarda yozilishicha, tovush paychalari titrapshi natijasida jarangli undosh tovushlar, ularning titramasligi natijasida jarangsiz undog tovushlar hosil bo'ladi. Bu fikr butunlay noto'g'ri, chunki, tovush payqallari bir-biriga yaqinroq bo'lib titrasa, jarangli, aksincha, tovush paychalari bir-biridan uzoqroq holatda titrasa, jarangsiz undosh tovushlar hosil bo'ladi, ya'ni tovush paychalarining qanday titrapii ularning o'rni, holatiga bog'liqdir. Bu oddiygina substant jihat bo'lib, uning .. gilning fonologik sistemasida jarangli-jarangsiz korrelyasiyasini. tashkil etishi uning struktural jihatini va tilda kanday vazifani . bajarishi, ya'ni so'z va jorfemalarni so'z boshi va o'rtasida farqlay : ilishi yoki so'z oxirida jarangLilarning jarangsizlashuv xususiyati, ya'ni neytralizasiya qilinishi uning funksional jihatini ifodalaydi. Sistemaviy fonologiya substant, struktural va funksional yasihatlarining bir-biri bilan bog'lanishiga tayanadi. Ularning birida bo'lgan o'zgarish boshqasida ham aks etadi.

Fonetikaga doir adabiyotlarda til tovush jihatining tuzilishi ancha sodda yoritilgan. Biroq, aslida, u juda murakkab va inson miyasi, i idora etuvchi turli nutq mexanizmlari ishtirok etadigan jarayonlar natijasida hosil bo'ladi. Tovushlarning substant jhati bir yirik , fonetik "giperbaza"ni tashkil etsa, bu esa, o'z navbatida, a) talaffuz (artikulyasiya) va b) prosodik (ritmik) bazalardan hosil bo'ladi. Talaffuz bazasi tildagi tovushlarning antropofonik jihatdan hosil bo'lishini ifodalasa, prosodik baza bo'g'in, urg'u va. intonasiyadagi barcha vositalarni qamrab oladi. Sistemaviy fonologiya ikki qatlamdan iborat; 1) fonematika, ya'ni unli va undosh fonemalar va ularning birikmalari; 2) prosodika, ya'ni bo'g'in, urg'u va intonasiyani tadqiqi. Odatda fonologiyada birliklarning ketma-ketlik tartibi farqlanishi belgilaridan boshlanadi va fonemaning o'zi farqlanish belgilarining majmui sifatida qaraladi. Fonemalarning farqlanish belgilarini aniqlashda paradigmatika asos bo'lsa, fonemalar birikmalari (fonotaktika) va boshqa prodik vositalarni nazariy tadqiq etishda sintagmatika asosiy ahamiyatga egadir. Fonologik neytralizasiyalarni aniqlashda avvalo ular ro'y beradigan holat xisobga olinadi. Masalan, o'zbek va rus tillarida jarangli-jarangiz oppozisiyasi so'z oxiridagi o'rinda neytralizasiyaga uchraydi va arxifonema vaqili jarangiz jufti orqali beriladi. Lekin bu xususiyat barcha tillarda ham shunday holatda bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilida jarangli-

jaraNGIZ oppozisiyasida (r— b, t ~ d, k - g, s --Z va b.) qatnashgan jarangli undoshlar so'z boshidagi (s) fonemasidan keyin neytralizasiya qilinmaydi.

N.S.Trubeskoyning ko'rsatishicha, tidagi bir o'lchovli, "privativ", proporsional (ya'ni faqat bir farqga ega bo'lgan bir necha (p -- ' , t —d, s - z kabi) odgozisiyalar neytralizasiya kilinadi. (N.S. Trubeskoy, 1960). Biroq, fonologik ofozisiyalarning nutqda qo'llanishini inobatga olinsa, ko'rt o'lchovli, proporsional bo'lmagan oppozisiyalar ham neytralizasiyaga uchraydi (Juravlev V.K, 1966). Psixologik jihatdan doimiy fonologik oppozisiyalar aniqroq his qilinadi, biroq neytralizasiya qilinuvchi oppozisiyalar noaniq eshitiladi. Fonologik nazariyalarning ko'pchiligida paradigmaticag'a asosiy e'tibor qaratilsa, sintagmatik tahlil yordamida esa, fonemalarning turli allofonlari aniqlanadi. Jahon tillaridagi unli fonemalar tilning ko'tarilishiga (goqori, o'rta, quyi) qarab farqlanadi. Bu odatiy farqlanish yettitagacha yetadi; yuqori, quyi yuqori, o'rtadan yuqoriroq, o'rta, quyi o'rta, quyidan balaandroq, quyi. Undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra fonologik farqlanishi jahon tillarida o'n yetti turga bo'linib, ular bir yuz Yigirmata opozisiyani tashkil etadi, bulardan oltmish to'qqiztasi aniqlangan, lekin boshqalari hali ma'lum emas (Ladyefoged P., Maddieson L, 1988). Bizningcha, "burun undoshlari" atamasi to'g'ri emas, chunki, bunday undoshlar og'iz va burun bo'xliklarida hosil bo'ladi. Undoshlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlanishida o'n uchta portlovchilardan yettitasi juft holda berilgan, yigirmata sirg'aluvchi undoshlardan o'ntasi juft holda berilgan, sakkizta burun undoshi, to'rtta yon sonantlari, o'nta (r) ra o'xshang undoshlar mavjud. Jahon tillaridagi turli unli va undosh tovushlarning murakkab talaffuz xususiyatlari nazariy jihatdan ancha mukammal yoritilgan (Catford 5.S. 1977, 1988). Bu fonologiyani substant jihatini chuqur o'rganishda yordam beradi. Fonologiyani turli xususiy masalalarini o'rganish yordamida jahon tillaridagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash mumkin. Sistemaviy fonologiyani substant, struktural va funksional jihatlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlar va unda qo'llanayotgan metod (oppozisiya, distribusiya) hamda tamoyillar chuqur va mukammali asosga egadir.

Bevosita ishtirokchilarga ajratish modeli tanqidiy idrok etilib, undagi ayrim g'oyalar asosida bir muncha mukammalroq va formallashtirishning negizi hisoblangan generativ va transformatsion grammatika (**generative and transformational grammar**) maydonga keldi. Transformatsion grammatika 1950 yillarda dastlab Z.Harrisning til struktursidagi transformatsiya xususidagi qarashlari ta'sirida yuzaga kela boshladi, bu yo'nalish Z.Harrisning shogirdi N.Chomskiy tomonidan rivojlantirildi. Unga ko'ra dastlabki yadro strukturalar birikma strukturalar qoidalar tizimi orqali tug'iladi. Ya'ni har qanday til grammatikasi yadro strukturalar (kernel structures) yig'indisidir. Yadro gaplar deb sodda, yig'iq, darak gaplar tushuniladi.⁴⁰ Ingliz tilida yadro gaplar sifatida quyidagi konstruksiyalar

ajratib ko'rsatiladi: 41 38 Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 88. 39 Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Toshkent, 2008. – B. 124. 40 Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 140-141. 41 Херрис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике. Выпуск II. – М., 1962. – С. 627-628. 40 4-jadval 1. N V Noun Verb Ot fe'l John came 2. N V p N Noun Verb Preposition Noun Ot fe'l predlogli ot John looked at Mary 3. N V N Noun Verb Noun Ot fe'l ot John saw Mary 4. N is N Noun is Noun Ot is ot John is a teacher 5. N is p N Noun is Preposition Noun Ot is predlogli ot John is in bed 6. N is D Noun is Adverb Ot is ravish John is out 7. N is A Noun is Adjective Ot is sifat John is angry Mazkur konstruksiyalarda N (Ot) turli xil determinatorlar (masalan, artikl, olmosh) hisobiga, V (Fe'l) ravishlar, adverbial (ravishli) birikmalar hisobiga kengayishi mumkin. Ushbu yadro konstruksiyalarning bir-biri bilan yoki turli transformatsiyalar asosida birikishi natijasida ingliz tilida boshqa turdagi gaplar hosil qilinishi mumkin. Masalan, The old man saw a black dog there jumlasida uchta yadro strukturaning yig'indisi sanaladi: 1) The man saw a dog there; 2) The man was old; 3) The dog was black. Generativ grammatikada yadro strukturalardan (operandlar) turli shakliy o'zgarishlar asosida asosiy ma'noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi (transformatsiyalar = transformalar), bu jarayondagi vositalar (operatorlar) va transformatsiya hosil qilish modellari tadqiq etiladi. 42 Masalan, Salim keldi – Salimning kelishi – Salim kelgach – Salim kelganda – Salim kelishi bilan...; Anvar xatni yozdi – Xat Anvar tomonidan yozildi. Ushbu misollarda transformatsiya uchun asos bo'lgan gap (Salim keldi yoki Anvar xatni yozdi kabi gaplar) operand, transformatsiya natijasi bo'lgan hosila gap (Salim kelgach, Salim kelib yoki xat Anvar tomonidan yozildi kabi sintaktik strukturalar) transforma yoki transformand, operanddan transformandni hosil qiluvchi vosita (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi yoki majhul nisbat shakllari) transformatsiya operatori deb ataladi. Transformatsion grammatika matematik lingvistika va kompyuter lingvistika fanining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, transformatsion grammatika tabiiy tillarning grammatikasini formallashtirish nazariyasi negizlarini yaratishga asos bo'ldi. Ikkinchidan, transformatsion grammatika avtomatik tarjima tizimining nazariy asosi sanaladi. Transformatsiya va derivatsiya jarayonlarining tabiiy tillarga faol tatbiq etilishi avtomatik tarjima samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, transformatsion grammatika til o'qitishni modellashtirishda ham muhim ahamiyatga

42 Qarang: Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. Выпуск II. – М., 1962. – С. 412- 527. 41 molik. 43 To'rtinchidan, transformatsion grammatika tabiiy tillardagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarning me'yoriyligi va grammatik to'g'ri va noto'g'ri jummalarni ajratishning aniq

mezonlarini belgilaydi. N.Chomskiy tavsiya etgan grammatikada gaplarni “tug’dirish” (hosil qilish) uchun o’rin almashtirish qoidalaridan foydalaniladi. Chap qismda gapning struktur komponenti simvollar joylashadi, o’ng qism esa ularning simvollarini o’rniga almashuvchilar yoki simvollar zanjiri (birikuvi)dan iborat bo’ladi. Quyidagi jadvalda ingliz tili uchun ayrim gapning struktur komponenti simvollarini ko’rsatilgan: 5-jadval № Simvollar Simvollar birikuvi

1	S – boshlang’ich simvol, u inglizcha “Sentence” (“gap”) so’zining bosh harfidan olingan	$S = NP + VP$
2	VP – kesim guruhining simvoli, u inglizcha “Verb Phrase” birikmasidan olingan	$VP = Verb + NP$
3	NP – ega guruhining simvoli, u inglizcha “Noun Phrase” birikmasidan olingan	$NP = Det + N$
4	Verb – kesim gap bo’lagining simvoli, u inglizcha “Verb” so’zidan olingan	$V = Aux + V$
5	Det – artiklning simvoli, u inglizcha “Determiner” (“aniqlagich”) so’zidan olingan	$Det = the, a, \dots$
6	N – ot so’z turkumining simvoli, u inglizcha “Noun” so’zidan olingan	$N = book, computer \dots$
7	Aux – yordamchi (ko’makchi) fe’llarning simvoli, u inglizcha “Auxiliary” so’zidan olingan	$Aux = will, can \dots$
8	V – fe’l so’z turkumining simvoli, u inglizcha “Verb” so’zidan olingan	$V = see, know \dots$

Jadvaldagi 5-8 qatorlarda ko’rsatilgan simvollar (Det, N, Aux, V) terminal simvollar deyiladi, chunki ular lug’atdagi aniq so’zlardir. 1-4 qatordagi simvollar esa noterminal simvollar deb ataladi. Gap hosil qilish jarayoni noterminal simvollarini o’ng qismga davomiy o’rin almashtirish asosida yuz beradi. Bunda boshlang’ich simvol S o’ziga mos keuvchi simvollar birikuvi NP hamda VP ga almashtiriladi. So’ng NP va VP simvollar ham o’z navbatida Det + N hamda Verb + NP ga almashtiriladi. Bu jarayon barcha simvollar noterminal bo’lguncha davom etaveradi. Masalan, ingliz tilidagi quyidagi jumlaning bevosita ishtirokchilar modeli asosida tahlil etaylik. Birinchi bosqichda jumla NP va VP ga ajratiladi: The old man | saw a black dog there - Keksa odam u yerda qora itni ko’rdi. Keyingi bosqichda yuqoridagi ajralish o’z navbatida yana ikki qismga ajratiladi: The || old man | saw a black dog || there. So’nggi bosqichda jumla bevosita ishtirokchilar modeli asosida “daraxt” (“sentence tree”) ko’rinishida tasvirlanishi mumkin:

44 Context-free grammar – matndan xoli bo’lgan grammatika, chunki undagi qoidalar universal hisoblanib, ma’lum matnga tayanib tahlil etilishga asoslanmaydi, balki u avvaldan empirik tarzda belgilab olinadi. Hozirda ushbu grammatika sun’iy programmalash tillariga (Pascal, C++, Delphi, HTML) faol tatbiq etilgan, shuningdek, tabiiy tillarni formallashtirish jarayonida ham grammatikani bayon qilishning eng optimal usuli hisoblanadi. Masalan: < SENTENCE > : : = < SUBJECT > < VERB PHRASE > : : = John I Mary < VERB PHRASE > : : = < VERB > < OBJECT > : : = eats I drinks

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Distributiv yondashuv ning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
2. Opposition yondashuv nima?
3. Transformatsion yondashuvga o'zingiz misollar toping.
4. Generativ yondashuv o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

5-mavzu: Til birliklari orasidagi munosabatlar: Lingvistik munosabatlar

(2 soat)

Reja:

1. **Munosabatlarni nutq jarayonida namoyon bo'lishi**
2. **Paradigmatik (uyadoshlik) munosabat**
3. **Sintagmatik (ketma-ketlik) munosabat.**

***Tayanch so'z va iboralar:** munosabat, paradigmatic, sintagmatic, lingvistik birlik, leksik semantik variantlar*

Lingvistik birliklar sistema tarkibida ma'lum munosabatda bo'ladi. Ularni dastlab ikki guruhga ajratish mumkin: 1) bir sathga mansub bo'lgan birliklar munosabati; 2) turli sathga mansub bo'lgan birliklar munosabati, ya'ni sathlararo munosabat.

Bir sathga mansub bo'lgan birliklar o'zaro ikki xil munosabatga kirishadi: 1) paradigmatic (uyadoshlik) munosabat; 2) sintagmatic (ketma-ketlik) munosabat.

Bir sathga mansub bo'lgan, qimmat jihatdan bir xil birliklarning ma'lum umumiy belgi asosida bir guruhga (uyaga) birlashuvi paradigmatic munosabat

sanaladi. Paradigmatik munosabatda bo'lgan birliklar uchun umumiy belgi sifatida shu birliklarning ma'nosi ham, shakli ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, **ishchi**, **ishla** leksemalari o'zakning umumiyligi bilan o'zaro birlashsa, qo'shimchalari bilan farqlanadi. Yoki aksincha, ishla, **angla**, **so'zla** singari leksemalar qo'shimchaning umumiyligi bilan birlashib, o'zakning xilma-xilligi bilan farqlanadi. Leksik sathda ayrim leksemalar shakliy o'xshashlik umumiy belgisi asosida bir uyani, sinfni tashkil etadi. Bunday leksemalar munosabati leksik omonimlarni hosil qiladi yoki ba'zi leksemalar ma'no umumiyligi asosida bir sinfga birlashadi. Bunday munosabatda bo'lgan leksemalar leksik sinonimlarni tashkil etadi. Xuddi shunday xususiyat fonologik sathdan yuqori bo'lgan barcha sath birliklari uchun xosdir. Masalan, umumiy egalik ma'nosi asosida barcha egalik shakllari bir uyaga birlashadi. Zamon ma'nosi asosida barcha zamon bildiruvchi fe'l shakllari bir paradigmaga birlashadi. Zamon ma'nosi asosida barcha zamon bildiruvchi fe'l shakllari bir paradigmani hosil qiladi. Shu bilan birga, paradigma ichida xuddi shunday umumiy ma'no asosida yana kichik paradigmalarga birlashishi mumkin. Jumladan, o'tgan zamon shakllari, kelasi zamon shakllari kabi.

Shunday qilib, ma'lum paradigma o'z ichida kichik uyalarga bo'linib, uyalar darajalanishini hosil qiladi. Masalan, *a*, *e*, *o*, *o'*, *u*, *i* unlilari munosabati unlilar sistemasini (paradigmasini) tashkil etish bilan birga, bu unlilarning har qaysisi bevosita kuzatishda bir qancha variantlar orqali yuzaga chiqadi va variantlar paradigmasini (sistemasini) tashkil etadi.

Lingvistik birliklarning uyadoshlik munosabatini belgilashda ko'proq ma'no umumiyligi belgisi xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum umumiy ma'no asosida bir paradigmaga birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan umumiy ma'no takrorlanishi lozim. Ana shu takrorlanuvchi ma'no (sema) har bir a'zoni ayni shu uyaga (paradigmaga) birlashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, uyaning har qaysi a'zosi boshqa a'zodan ma'lum belgilariga ko'ra farqlanish xususiyatiga ham ega. Ana shu farqlanish belgisi bilan uyaning alohida birligi ekanligini saqlab turadi. Demak, har bir a'zo birlashtiruvchi va farqlovchi semalar birligidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema har bir a'zoni ma'lum mazmuniy uyaga (paradigmaga) birlashishini, farqlovchi sema esa uya tarkibidagi har bir a'zoning o'ziga xosligini, alohidaligini ko'rsatib turadi. Anglashiladiki, paradigmaning har bir a'zosida umumiylik va o'ziga xoslik dialektikasi amal qiladi. Masalan, **-gan**, **-di** shakllari o'tgan zamon semasi bilan bir paradigmaga kiradi. Shu bilan birga, ularning har ikkisi o'ziga xos farqlanish belgisiga ham ega. Ular o'tgan zamonning nutq jarayoniga nisbatan uzoq yoki yaqinligini ifodalash jihatidan bir-biridan farqlanadi. Birinchisi nisbatan uzoq o'tgan zamonni, ikkinchisi esa yaqin o'tgan zamonni bildiradi.

Har bir paradigma sistema sanaladi. Shunday ekan, til sistemasi o'zaro munosabatda bo'lgan bir qancha paradigmalarning birligidan iboratdir.

Har bir paradigma a'zolari bir-biri bilan zidlanish xususiyatiga ega. Zidlanish har qanday narsa va hodisaning ichki taraqqiyot negizidir. Shunday ekan, davrlar o'tishi bilan paradigma a'zolari o'rtasida miqdoriy o'zgarish ro'y berishi mumkin. Ayrim a'zolar eskirib, iste'moldan chiqishi, yangisi kirib kelishi mumkin. Bu esa til sistemasining ochiq sistema ekanligini ko'rsatadi.

Paradigmatik munosabat a'zolari imkoniyat tarzida til egalari ongida mavjud bo'ladi. Har bir paradigma a'zosi bevosita kuzatishda, ya'ni nutq jarayonida turli nusxalarda, turli xil variantlarda namoyon bo'ladi. Demak, har bir paradigma a'zosi bevosita nutq jarayonida namoyon bo'ladigan turli xil variantlarning umumlashmasi - invarianti sanaladi.

Paradigma a'zolari nutq jarayonida har qaysi tilning muayyan qonun-qoidasi asosida hamda paradigma a'zosining ma'nosi doirasida boshqa paradigma a'zosining varianti bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Sintagmatik munosabatda munosabatga kirishuvchi lingvistik birliklar tanlanish xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni har qanday qimmat jihatidan bir xil bo'lgan lingvistik birliklar emas, balki mazmuniy muvofiqlashgan, ma'no taqozo etgan ikki paradigma a'zosi variantlarigina sintagmatik munosabatga kirishadi. Sintagmatik munosabatga paradigma tarkibidagi invariant o'zining barcha variantlari orqali emas, balki bitta varianti orqali munosabatga kirishadi. Masalan, *gapirmoq* leksemasi "biron fikrni boshqasiga tovushlar majmuasi orqali ifoda qilmoq" semasi orqali faqat "shaxs" semasiga ega bo'lgan predmet bilangina sintagmatik munosabatga kirishadi. *Chaynamoq* leksemasi:

"ma'lum bir yemishni tish orqali maydalash" yoki "rezinani tish orqali ezg'ilash";

"yomonlamoq";

"ezmalanmoq";

"muayyan bir moddani o'ramoq"

singari leksik semantik variantlar umumlashmasi - invarianti sanaladi. Bu leksik semantik variantlar alohida-alohida tarzda sintagmatik munosabatga kirishadilar va har qaysi leksik semantik variantlarning, bir necha paradigma a'zolarining varianti bo'lib kelishi mumkin.

Birinchi semasi bilan *yemoq*, *g'ajimoq*, *kavshanmoq* leksemalari bilan; ikkinchi semasi bilan *yomonlamoq*, *g'iybat qilmoq* leksemalari bilan; uchinchi semasi bilan *ezmalanmoq*, *ming'irlamoq* singari leksemalar bilan; to'rtinchi semasi bilan *buramoq*, *yo'nalmoq* leksemalari bilan bir paradigmani hosil qiladi va har qaysi variant alohida-alohida subyekt valentligiga egadir.

Birinchi, chaynab oziqlanuvchi subyekt - odam yoki hayvon; ikkinchisi - odam; uchinchi - odam; to'rtinchisi - mashina kabi subyekt valentligiga ega. Nutqiy jarayonda ana shu valentliklarga ega bo'lgan leksemalar bilan to'ldiriladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Munosabatlarni nutq jarayonida namoyon bo'lishini tushuntiring.
2. Paradigmatik (uyadoshlik) munosabat deganda nimani tushunasiz?
3. Sintagmatik (ketma-ketlik) munosabat deganda nimani tushunasiz?
4. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlarga misollar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

6-mavzu: O`zbek tilining taraqqiyot yo`nalishlari. O`zbek tilshunosligidagi yangi yo`nalishlar

(2 soat)

Reja:

- 1. O`zbek tilining taraqqiyot yo`nalishlari**
- 2. O`zbek tilshunosligidagi yangi yo`nalishlar**

***Tayanch soʻz va iboralar:** oʻzbek ilmiy tilshunosligi, oʻzbek tilining ichki struktur belgilari, milliy til, metodologik asos*

Har qanday fan taraqqiyoti muayyan bosqichlardan iborat bo'lib, keyingi bosqich oldingi bosqich bag'rida unmg vorisi sifatida dunyoga keladi. Oldingi bosqich yo'l qo'ygan kamchiliklarga tanqidiy baho bergan holda, bunday kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradigan tadqiqot metodologiyasi va metodlarini qidirishga harakat qiladi. XX asrning oxirgi choragi va XXI asr boshlaridagi o`zbek tilshunosligi ham ana shunday jarayonni o`z boshidan kechira boshladi. Ayyub G`ulom asos solgan o`zbek ilmiy tilshunosligi yutuqlarini e'tirof etgan va unga tayangan holda, o`zbek tilining ichki struktur belgilarini yoritishga yordam beradigan yangi tadqiqot metodlarini qo'llashga intilish kuchaydi. Bunga shu davrda ro'y bergan sotsiolingvistik jarayon qulay imkoniyat yaratdi. Sobiq sovet imperiyasining kuchsizlanishi va bu imperiya tarkibiga zo'rlik bilan birlashtirilgan respubhkalarda milliy o`z-o`zini anglash hissining kuchayishi har bir respublikada davlat tili uchun kurashish harakatining boshlanishiga, ayni paytda, tilshunoslik fanida ham shu kungacha amalda bo'lgan tadqiqot metodlariga shubha bilan qarash kayfiyatining tug'ilishiga sababchi bo'ldi. Xususan, sho'rolar davrining 50—60-yillarida dunyo tillarining o`zaro yaqinlashib, oxir-oqibat yagona bir tilga aylanishi haqidagi stalincha til siyosatining amalga oshirilishi, bunday siyosatning Stalindan keyin ham davom ettirilishi, shuning uchun SSSR tarkibidagi barcha tillarda umumiy leksik fondni kengaytirib borish tillarning asosiy taraqqiyot qonuni bo'lishi kerakligi Haqidagi qarashlar hukm surdi. O`tish davrida milliy o`zlikni anglagan ziyolilar o`rtasida ana shunday til siyosatiga katta e'tiroz uyg'ondi. Ikkinchi tomondan, yuqoridagi til falsafasi tamoyillariga sig'magan lingvistik

yo'nalishlarning barchasini 60-yillarga qadar burjua lingvistikasi deb c'lon qilindi va dunyo tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlari, yangi-yangi tekshirish metodlarining kirib kelishiga yo'l qo'yilmadi. Mashhur tilshunos A.Martins 1953-yil yozgan maqolasida shu davr tilshunoslari va tilshunosligi haqida fikr yuritarkan, «ko'pchilik buyuk tilshunoslarning e'tiqodli va faol strukturalistlar» ekanligini bayon qiladi. M.Koen esa tilshunoslikda strukturalizm erasi boshlanganligini ta'kidlaydi¹. 1953-yilda dunyo tilshunosligida tobora o'z-o'ziga qozonayotgan struktur tilshunoslikning sho'rolar tilshunosligiga ta'sir etishining oldini olish maqsadida bu yo'nalishga tanqidiy baho beruvchi qator maqolalar c'lon qilindi². O.Leshka tomonidan struktur tilshunoslik burjua tilshunosligi deb baholandi. Praga lingvistik maktabining maydonga kelishi ideallashtirilgan holda, ishchilar sinfi ustidan burjuaziyaning g'alaba qilish davri bilan bog'landi va u burjuaziyaning g'oyaviy quroli ekanligi ta'kidlandi. Uning fikricha, «til haqidagi yangi ta'limot» marksistik tilshunoslikning shakllanishiga to'sqinlik qilibgina qolmasdan, tilshunoslikdagi reaksiya burjua yo'nalishni tanqid qilishga ham xalaqit berdi³. Natijada sho'rolar davrida faqat marksistik falsafagina fan metodologiyasiga aylandi. Bu metodologiyadan tashqaridagi barcha fan yo'nalishlari burjuaziya fan yo'nalishi deb baholandi. Milliy respublikalardagi milliy tillarni o'rganuvchi xususiy tilshunoslik uchun ham ana shu yo'nalish metodologik asos qilib olindi. 80-yillardan boshlab milliy o'z-o'zini anglash hissining kuchayishi esa yangi tadqiqot metodologiyasi va metodlarining kirib kelishiga imkoniyat tug'dirdi. Bu esa sistemaviy (struktur) tilshunoslikka oid terminologik apparatning kirib kelishiga olib keldi. Natijada o'zbek lingvistik atamalari sistemasi yangi atamalar qatlami bilan boyidi. Garchi hozirgi o'zbek tilshunosligida sistemaviy tilshunoslikka oid bir qator atamalar faol qo'llanayotgan bo'lsa ham, lekin bu atamalarning qiymati turlicha talqin qilinmoqda. Sababi sistemaviy tilshunoslikning turli tarmoqlari o'rtasida bu atamalar turlicha ma'nolarda qo'llaniladi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikning kelib chiqishi, uning tarmoqlari, tarmoqlar o'rtasidagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni, har qaysi tarmoqqa xos terminologik apparatni yoritish zaruriyati sezilmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. O'zbek tilining taraqqiyot yo'nalishlari qaysi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq deyish mumkin?
2. O'zbek ilmiy tilshunosligining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
3. Milliy tillar uchun qanday yo'nalish metodologik asos qilib olindi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

7-mavzu: O'zbek tilshunosligida innovatsiya. O'zbek tilining nazariy masalalari talqinida yangicha yondashuvlar

(2 soat)

Reja:

4. O'zbek tilshunosligida innovatsiya
5. O'zbek tilining nazariy masalalari

Tayanch so'z va iboralar: nazariya, til hodisalari, struktural, sistemaviy, formal-funksional, substansial.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida goh arab, goh fors, goh rus tilshunosliklari ta'sirida bo'ldi. Bundan, tabiiyki, goh yutdi, goh yutkazdi. Albatta, bu tilshunosliklar bir qator masalalarni o'zbek tilshunosligida hal qilish uchun jiddiy yordam berdi. Ayni paytda bu tillar (arab, fors, rus)ning birontasi xam o'zbek tili bilan qarindosh emasligi bir qator masalalarni o'zbek tilida Ayni tilning tabiatidan kelib chiqib hal qilinishiga olib keldi.

O'zbek tilshunosligida til hodisalari butun murakkabliklari bilan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bugungi o'zbek tilshunosligi tilshunoslikning deyarli barcha sohalari bo'yicha fundamental, ilmiy baquvvat tadqiqotlarga ega bo'ldi.

Dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham til sathlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Natijada bir qancha kitoblar, maqolalar, dissertasiyalar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi davlat tili xaqidagi qonunning qabul qilinishi, so'ngra Respublikamizning mustaqillikka erishuvi bilan o'zbek tilshunosligining rivojlanishi uchun to'siq bo'ladigan barcha holatlarni bartaraf etishni ta'minlovchi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yuzaga keldi. Bizningcha, ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Respublikamizda tilshunoslik siyosatida mavjud bulgan salbiy holatlarga butunlay chek qo'yildi va o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti qonuniyatlari talablariga mos holda erkin rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

2. O'zbek tilining o'z mohiyatidan kelib chiqib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga yangicha yo'l ochildi, sharoit yuzaga keldi.

3. O'zbek tilshunosligining rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanuvchi tashqi imkoniyatning doirasi nihoyatda kengaydi va bundan keyin ham kengayaveradi. Sobiq ittifoq davrida faqat rus tilshunosligi tashqi manba bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bundan buyon o'zbek tilshunosligi bilan o'zaro alohida bo'luvchi tilshunoslikning soni ortib boradi. Chunki O'zbekiston Respublikasi bilan o'zaro aloqa bog'layotgan davlatlar sonining tobora ko'payib borayotganligi shunday sharoitni yuzaga keltirdi.

O'zbek tilshunosligiga kirib kela boshlagan struktural, sistemaviy, formal-funksional, substansial tahlil usullari butun jahon fanida bo'lgani kabi yildan-yilga rivojlanib, taraqqiy etib bordi.

F.de.Sossyurning «Til substansiya (mohiyat) emas, balki shakldir» degan fikri struktural g'oyalarning rivojlanishida asosiy omil bo'ldi. Struktural tahlilga doir fikrlar o'zbek tili materiallari asosida aytili. Amerikalik olimlar Ch.Ye.Bidvel (1954) va A.F.Seberg (1963) ingliz tilida o'zbek tilining struktural grammatikasini yaratdilar. Hozirgi kunda oliy filologik ta'limning lingivistika mutaxassislari struktural grammatikani o'rganishmoqda. O'zbek tilshunosligida ham bunga shaxdam qadamlar tashlandi. B.O'rinboyevning «O'zbek tilining struktural grammatikasi» (Samarqand, 2002) o'quv qo'llanmasi yaratildi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlardan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Fransiya kabilarning oliy filologik ta'limida sistem tilshunoslik o'rganilmoqda.

O'zbekcha matnlarning sistem-statistik tahlili S.A.Muxammedov va R.G.Piotrovskiy tomonidan 1986 yilda nashr etilgan. «Injenernaya lingvistika i opyt sistemno-statisticheskogo issledovaniya uzbekskix tekstov» kitobida bayon etilgan.

O'zbek lingvistikasida o'zbek tili matbuotining leksik tarkibini birinchi bo'lib tekshirgan V.V.Reshetov edi (V.V.Reshetov.Leksicheskiy sostav sovremennoy uzbekskoy pressy//Problemy yazyka, Вып.1.Tashkent,1934,s.41-51). 1940 yilda A.K.Borovkov ham gazeta materiallari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Shuningdek, I.A.Kissen, V.M.Popov, B.Bafoyev, S.Muxamedova, D.B.O'rinbayeva (O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari tilining lingvostatistik tadqiqi,2010.), S.A.Rizayev (O'zbek tilining lingvostatistik tadqiqi,2008.) kabilar statistik metoddan foydalanganlar.

Tilshunoslik nazariyasi tarixida tovush sistemasini o'rganish ikki davr bilan izohlanadi: 1. Fonema tushunchasi paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davr.

2. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda fonema nazariyalarining, ya'ni fonologiyaning yuzaga kelish davri.

Birinchi davrda fonema va tovush, ba'zan harflar o'rtasidagi farq aniq ko'rsatilmay, tovushlarning talaffuzi so'zlardagi u yoki bu holatda etimologik o'zgarishlarga uchrashiga ko'proq e'tibor berilgan.

Fonologiya davrida ular o'rtasidagi farq oydinlashtirildi va tovushlar, keyinchalik bo'g'in, urg'u va intonasiyaning tildagi funksional tomonlari o'rganila boshladi. XX asrning 30-yillarida morfonologiya vujudga keldi. Bular haqidagi fikrlar A.Nurmonovning «O'zbek fonologiyasi va morfonologiyasi» (T.,1990), A.Abduazizovning «O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi» (Toshkent, 1992) o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan.

Sistem leksikologiya muammolari X.Ne'matov, R.Rasulovlarning «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari»(Toshkent, 1995) asarida o'z izohini topgan.

Sistemaviy-sintaktik tahlil o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi va yosh yo'nalish bo'lishiga qaramay, fanimizda shu sohada qilingan ishlarni ikki katta yo'nalishga birlashtirish mumkin. Bu yo'nalishlar asosiy sintaktik tahlil birliklari (So'z birikmalari va gaplar)ni qanday tushunish va ajratish bilan bir-biridan tamoman farqlanadi. Birinchi yo'nalishni A.Safoyevning gapning aktual bo'linishi,

A.Nurmonov, N.Maxmudovlarning gap strukturasi sistem tahlili, A.Berdialiyev, M.Boshmonov kabilarning tadqiqotlari tashkil etadi. Bu yo'nalishda til sintaktik birliklari sifatida prof. A.G'ulomov va uning izdoshlari G.A.Abduraxmonov, M.Askarova, A.Sayfullayev, I.Rasulov, F.Ubayeva, X.Xoliyorov, A.Sulaymonov, B.O'rinboyev, A.Omonturdiyev kabi sintaksis tadqiqotchilari ishlarida berilgan so'z birikmalari, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gapning qurilish xususiyatlari qabul qilingan. Boshqacha aytganda, bu tadqiqotlarda sintaktik tahlil birliklari leksik to'ldirilgandir. Masalan, so'z birikmalarining tipik ko'rinishlari sifatida «Bekzodning kitobi», «Qissani o'qimok», «temir qoshiq» kabi konkret, leksik to'ldirilgan sintaktik hosilalar beriladi. Shunday sintaktik hosilalar til va nutq, apradigmatik va sintagmatik munosabatlar kabi sistemaviy tahlil usullari asosida tadqiq etilgan. Bu yo'nalish sintaktik tahlil birliklarining o'zini til-nutq bo'linish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqmaydi. «O'zbek tili grammatikasi». 2 tomlik (Toshkent, 1976), A.G'ulomov va M.Asqarovalarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili.Sintaksis» (Toshkent, 1965,1987), G.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, A.Omonturdiyevlarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (Toshkent, 1990,2001), B.O'rinboyevning «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» (Samarqand, 2006) kabi darslik va qo'llanmalarining chiqishi buning dalilidir.

Ikkinchi guruhga o'zbek morfologiyasini substansial, formal-funksional o'rganishga, morfologik shaklni ma'naviy va sintaktik xususiyatlar majmuasi sifatida tahlil etishga bag'ishlangan tadqiqotlardan o'sib chiqqan sistemaviy sintaktik talqinga oid ishlarni kiritish lozim. Bu yo'nalishning tahlil asoslari H.Ne'matov, K.M.Abdullayev, V.N.Binaru, N.Maxmudov, D.A.Muxammedova, A.Nurmonovlarning «Struktura predlozheniya aktualnyye voprosy sintaksisa tyurkskix yazikov» (Sovetskaya tyurkologiya. 1984, № 5, s. 3-10), R.Sayfullayevaning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning formal-funksional tadqiqi» (Toshkent, 1994), A.Nurmonov, NA.Axmedov, S.Solixo'jayevalarning «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (Toshkent, 1992), H.Ne'matov R.Sayfullayeva, M.Qurbonovalarning «O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari» (Toshkent, 1999) ishlarida rivojlantirilgan.

O'zbek sistemaviy sintaksisi tadqiqidagi bu ikki yo'nalish o'zining tadqiq manbai bilan bir-biridan tubdan farq qiladi va bu ikki oqimni birlashtirish mumkin emas. Har ikkala yo'nalish murakkab va serqirra manbaga turli tomondan yondashish deb qaralishi va xolisona baholanishi lozim.

O'zbek sistemaviy sintaksisida ajratiladigan har ikki yo'nalish orasidagi umumiylik shundan ibortki, har ikkala guruh vakillari sistemaviy tahlil tushunchalari

va usullaridan foydalanib fanning tadqiqot ishlarini amalga oshiradilar. Bu yo'nalishlar orasidagi asosiy farq quyidagilardan iborat:

1. Birinchi yo'nalish vakillari sistemaviy sintaktik tahlil jarayonida an'anaviy sintaksisda ajratilgan va tahlil etilgan so'z birikmalari va gaplarni til hodisasi deb tan oladilar hamda ularni an'anaviy ta'limotga tayanib ish ko'radilar.

2. Ikkinchi yo'nalish vakillari til va nutq, mohiyat va hodisalarni izchillik bilan farqlaydilar va an'anaviy sintaksisda sintaktik tahlil manbai bo'lgan so'z birikmalari va gaplarni nutqiy hosilalar deb biladilar. Shu asosda ular sintaksisning tahlil manbaini mana shu nutqiy hosilalarni tug'diruvchi, yuzaga keltiruvchi qoliplar (modellar, qurilma va chizmalar)da ko'radilar.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. O'zbek tilshunosligida innovatsiya qanday namoyon bo'ldi?
2. O'zbek tilining nazariy masalalariga doir qanday ilmiy izlanishlarni bilasiz?
3. Lisoniy tafakkur hamda muloqot faoliyati deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
5. Рахматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

8-mavzu: Semantika. Til birliklari semantikasi

(2 soat)

Reja:

1. Semantika

2. Til birliklari

Tayanch soʻz va iboralar: *semantika, til birliklari, lugʻaviy maʼno, grammatik maʼno*

Semantika soʻzi yunoncha semantikos va fransuzcha semantique soʻzlaridan olingan boʻlib, —ifodalovchi degan maʼnoni bildiradi. Tilshunoslikda bu soʻzmaʼnoda qoʻllanadi: a) til birliklarining mazmun, maʼno tomoni; b) lugʻaviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bogʻliq masalalarni oʻrganuvchi soha — semasiologiya. Bundan koʻrinadiki, tilshunoslikda semantika fani til birliklarining mazmun tomonini oʻrganadi va tadqiq etadi. Semantika atamasini tilshunoslikka ilk bor 1897-yilda fransuz tilshunoslari tomonidan kiritilgan boʻlib, XIX asr oxiriga kelib lingvistik semantika mustaqil fan sifatida shakllangan. Soʻzva uning lugʻaviy hamda grammatik maʼnolarini oʻrganish semantikaning asosiy vazifalaridan biridir. Hozircha tilshunoslik fanida soʻzning barcha olimlar tan oladigan umumiy ilmiy taʼrifi mavjud emas. Akademik A.Hojiyev tomonidan tuzilgan lugʻatda soʻzga quyidagicha taʼrif berilgan: —Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan koʻrinishi. Oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va vazifalarda qoʻllanadigan eng kichik nutq birligi soʻzdir. Maʼlumki, til strukturasida bir-biridan yaqqol ajraladigan yarusi (sath)lardan biri nomlash birliklari (nomlovchi birliklar — NB), ikkinchisi esa xabarlash birliklari (xabarlovchi birliklar — XB) yarusi (sathi)dir. Agar biz bu umumiy semantik qoidani til birliklari terminida ifoda etsak, NBlar yarusi tilning soʻzlar (leksik birliklar) sathidan, xabarlovchi birliklar yarusi esa gaplar sathidan iborat boʻlishi maʼlum boʻladi. Bu nuqtai nazardan soʻzning asosiy funksiyasi nomlash, atash funksiyasi boʻladi. Soʻzning gapdagi vazifasi uning mana shu nominativ funksiyasi bilan belgilanadi Soʻz muayyan grammatik shaklga ega

bo'lgani uchun nomlash vazifasini bajarmaydi, aksincha, so'znominativ funksiyaga ega bo'lgani uchun gapda muayyan grammatik shaklda keladi. Xullas, prof.Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashicha, leksemaning mazmun jihati ancha murakkab bo'lib, uning asosini leksik ma'no tashkil qiladi. Leksik ma'noning uzvlariga ideografik semalar deyiladi. Leksik ma'noning tarkibida turkumlik semasi ham qatnashadi. Leksik ma'noni qurshab turuvchi betaraf, ijobiy yoki salbiy baho semasi ham mavjud bo'ladi va boshqalar... Leksema bir leksik ma'noli bo'lsa (monosemema bo'lsa), u bitta til birligiga teng; agar ko'p ma'noli bo'lsa (polisemema bo'lsa), har bir leksik ma'noni (sememali) alohida til birligiga teng deb qarash lozim||1. Tilning NBlari so'zning o'zidagina iborat emas. So'z bilan bir qatorda so'zbirikmasi ham tilning NBlari qatoriga kiradi. Nominativ funksiya qisman gapga ham xos. Funksional tomondan so'zning xususiy, o'ziga xos belgisi uning NBlar qatorida tutgan o'rni bilan belgilanadi. So'ztilning minimal NBlar sanaladi. Bundan so'zma'noli qismlarga bo'linmas ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, chunki so'z bir morfemadan (o'zak morfemadan) tashkil topgani kabi, bir qancha morfemalar qo'shilmasidan ham tashkil topishi mumkin: ish+chi., uyin+choq+lar, top+il+ma+di kabi. Lekin morfemalar qo'shilmasi (so'z) bilan so'zlar birikuvi (so'zbirikmasi) o'zaro farq qiladi. So'zning tarkibiy qismlari nominativ funksiyaga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ular uzvlari alohida tilning NBlari qatoriga kirmaydi. So'zbirikmasi esa so'zlardan tashkil topadi: uyda qoldi, uzoq yurdi, keng dala, birinchi muallim kabi. Boshqacha qilib aytganda, so'zbirikmalarining komponentlari NBlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun so'zbirikmasi tilning minimal NBlar (so'z) hisoblanmaydi. So'zbirikmasi bilan so'zning bir-biriga munosabati to'g'risida gap ketganda, ular orasiga keskin chegara qo'yib bo'lmasligini alohida ko'rsatib o'tish zarur, chunki so'zbirikmasi qo'shma so'z hosil bo'ladigan asosiy manbalardan biridir: katta qo'rg'on - Kattaqo'rg'on, oq daryo - Oqdaryo, makka(ning) jo'xori(si) - makkajo'xori, muzning yorilishi - muzyorar, marjon(dan) buloq- Marjon buloq kabilar. So'zbirikmasi bilan qo'shma so'z orasida ikki xil farqlanadigan hodisalar ko'p uchraydi. Aslini olganda, tilshunoslikda ham so'znazariyasining eng zaif nuqtalaridan biri ham ana shunday

ikki xil talqinga yo'l qo'yadigan birikmalar masalasidir. Gap shundaki, O'zbek tilida qo'shma so'z bilan so'z birikmasining grammatik shakllanishi tamoyilda ko'pincha o'zaro farqlanmaydi. Xuddi qo'shma so'zda bo'lgani kabi, so'z birikmasida ham formal ko'rsatkichlar komponentlarga alohida-alohida emas, balki butun birikmaga qo'shiladi. Masalan: rus tilida beloruchka qo'shma so'z, NB, belaya ruchka so'z birikmasi. Bu birliklarning turlanishi, grammatik jihatdan o'zgarishi o'zaro keskin farq qiladi: beloruchku; beloruchke, beloruchkoy; beluyu ruchku, beloy ruchke, beloy ruchkoy kabilar. Bu birliklarning o'zbekcha ekvivalentlari grammatik shakl nuqtai nazaridan o'zaro farqlanmaydi: oq bilak (tannoz), oq bilak (bilagi oq) kabi. Bu birliklarning kelishiklar va egalik qo'shimchalari bilan turlanishi bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi: oq bilakning, oq bilakni, oq bilakka, oq bilakda, oq bilakdan; oq bilagim, oq bilaging, oq bilagi, oq bilagimiz, oq bilagingiz, oq bilaklari kabi. Bu ikki birlik orasidagi farq ularning ifodalovchisida emas, balki ularning mazmun planida, ularning ma'no xususiyatidadir: bilagi oq ma'nosidagi oq bilak erkin birikma bo'lsa, tannoz ma'nosidagi oq bilak idiomatik birikmadir. Bu birikma ikki so'zning birikuvi sifatida emas, balki yaxlit, bir butun birlik (so'z, NB) sifatida tushuniladi. Rus tilidagi beloruchka ham, o'zbek tilidagi oq bilak (tannoz) ham idiomatik xarakterga ega. Bulardan beloruchka birligining yaxlitligi formal ko'rsatkichlar bilan mustahkamlangan, lekin oq bilak (tannoz) bunday ko'rsatkichlar bilan mustahkamlangan emas. Shuning uchun rus tilidagi beloruchka birligini qo'shma so'z, o'zbek tilidagi oq bilak (tannoz) birligini esa ibora sifatida baholash o'rinlidir. Bu keltirilgan dalil shuni ko'rsatadiki, tilning lug'aviy birliklari, NBlar faqat so'zlar bilangina chegaralanmaydi. Tilning NBlari doirasiga rasman frazeologizmlar ham kiradi, chunki iboralarning ma'lum qismi nominativ funksiyani bajaradi. Tilimizdagi yumshoq supurgi (laganbardor), qora oltin (neft), zangori olov (gaz), zangori ekran (televizor), oq oltin (paxta), ammamning buzog'i (lapashang) kabi frazeologizmlarda farqlash funksiyasi ularni muayyan predmet yoki xarakter-xususiyat ma'nosini ifodalashdek imkoniyatini tamomila cheklab qo'ymaydi. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda, frazeologizmlarning nominativ xususiyatiga doir A.V.Kuninning quyidagi fikri xarakterlidir: —Predmetlar va

jarayonlarning ekspressiv xarakteristikasi ko'pgina frazeologizmlarga xosdir, lekin bu xususiyat ularning nominativlik xususiyatini yo'qotmaydi, faqat ularga ma'lum uslubiy yo'nalish bag'ishlaydi||1. Lingvistik semantika sohasi mana shu masalalarni ham tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Bundan ko'rinadiki, lingvistik semantika fanining asosiy vazifasi til birliklarining mazmun tomonini tadqiq etishdir. Shunga binoan tilshunoslik fani til birliklarining ma'no tomoni uning asosiy va muhim tomoni deb hisoblaydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Semantikaga ta'rif bering.
2. Til birliklari deganda nimani tushunasiz?
3. Lug'aviy ma'noga misollar yozing.
4. Grammatik ma'noga misollar yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

9-mavzu: Amaliy tilshunoslik.Lingvistik metodlar va eksperimental usullar

(2 soat)

Reja:

- 1. Amaliy tilshunoslik tilshunoslikning bir sohasi sifatida.**
- 2. Lingvistik metodlar va eksperimental usullar**

***Tayanch soʻz va iboralar:** amaliy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tadqiq metodlari, eksperimental usullar*

Tilshunoslik - bu tilni va uning tuzilishini ilmiy o'rganishdir. Uning tarkibida sotsiolingvistik, psixolingvistik, hisoblash tilshunosligi, dialektologiya, qiyosiy tilshunoslik va tizimli tilshunoslik kabi ko'plab sohalar mavjud. Amaliy tilshunoslik ham tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tilni hayotiy vaziyatlarga ta'sir qilganligi sababli o'rganadi. Amaliy tilshunoslik nima? Amaliy tilshunoslik tilshunoslikning bir yo'nalishi bo'lib, u tilshunoslikning amaliy qo'llanilishiga qaratilgan. Boshqacha aytganda, bu tilshunoslik bilan bog'liq tushunchalarni amalda qo'llashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu til bilan bog'liq muammolarni aniqlash, tadqiq qilish va echimlarni taklif qiladigan o'rganish sohasi. Shunday qilib, bu tilshunoslarga tillarni o'qitishning eng yaxshi usullari yoki til siyosatini shakllantirishdagi mavjud muammolar kabi amaliy muammolarni tushunishga yordam beradi.

Amaliy tilshunoslik ikki tilli, ko'p tilli, disursiy tahlil, til pedagogikasi, tilni o'rganish, tilni rejalashtirish va siyosat, tarjima kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi. Bundan tashqari, amaliy tilshunoslik ta'lim, aloqa, sotsiologiya va antropologiya kabi boshqa sohalar bilan bog'liq.

Tilshunoslik va amaliy tilshunoslik o'rtasidagi farq nima?

Tilshunoslik bu tilni va uning tuzilishini ilmiy o'rganishdir. Uning tarkibida sotsiolingvistik, psixolingvistik, hisoblash tilshunosligi, dialektologiya, qiyosiy tilshunoslik va tizimli tilshunoslik kabi ko'plab sohalar mavjud. Amaliy tilshunoslik ham tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tilni hayotiy vaziyatlarga ta'sir qilganligi sababli o'rganadi. Tilshunoslik - bu umumiy yoki muayyan tillardagi tilning tuzilishi

va rivojlanishini ilmiy o'rganish. Bundan farqli o'laroq, amaliy tilshunoslik tilshunoslikning tilshunoslikning amaliy qo'llanmalariga yo'naltirilgan tarmog'idir. Demak, bu tilshunoslik va amaliy tilshunoslikning asosiy farqidir. Muhimi, tarixiy tilshunoslik va qiyosiy tilshunoslik kabi tilshunoslikning ayrim sohalarida tilning nazariy jihatlari ko'proq e'tiborga olinsa, amaliy tilshunoslik tilshunoslikning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, tilshunoslik asosan tilni va uning tuzilishini ilmiy o'rganishga qaratilgan bo'lib, amaliy tilshunoslik til bilan bog'liq muammolarni aniqlash, tadqiq qilish va echimlarni taklif qilishi mumkin. Shuning uchun biz buni tilshunoslik va amaliy tilshunoslikning funktsiyalari nuqtai nazaridan farqi deb hisoblashimiz mumkin.

Tilshunoslik bu tilni, uning tuzilishini va rivojlanishini ilmiy o'rganish bo'lib, fonologiya, semantika, morfologiya va pragmatika kabi sohalarni qamrab oladi. U shuningdek turli sohalarni o'z ichiga oladi va amaliy tilshunoslik ana shunday yo'nalishlardan biridir. Tilshunoslik va amaliy tilshunoslikning asosiy farqi shundaki, umuman olganda yoki muayyan tillardagi tilning tuzilishi va rivojlanishini ilmiy o'rganish, ikkinchisi tilshunoslikning tilshunoslikning amaliy qo'llanmalariga yo'naltirilganligi hisoblanadi.

Odatda lingvistik tadqiq metodlari tilshunoslikning barcha bo'limlari uchun umumiydir, ya'ni ayni bir usul bilan tilning fonetik qurilishi ham, leksik, morfologik v. b. tomonlari ham tadqiq qilinadi. Chunonchi, tarixiy tilshunoslikda tarixiy fonetika, tarixiy fonologiya, tarixiy morfemika, tarixiy sintaksis, tarixiy stilistika v. b. bo'limlar mavjud. Shu bilan birga tilning ayrim sath birlik (bo'lim, soha) larini o'rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari ham bor. Chunonchi, eksperimental fonetika, semantik sintaksis, lingvistik semantika. Tilshunoslikda lingvistik tadqiq metodi juda ko'pdir. Tom ma'noda tilshunoslik tarixi - bu tilni tadqiq etish usullarining bosqichma-bosqich almashinib, yangilanib borishi, bir-birini to'ldirib, til mohiyatiga chuqurlasha borish tarixidir; tilshunoslik tarixiga bag'ishlangan har qanday tadqiq va qo'llanma ayni zamonda tilning tadqiq metodlari masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Til - juda serqirra, ko'p tomonli hodisa. Uning har bir qirrasi, tomoni alohida bir metod bilan tadqiq etiladi, o'rganiladi. Shunga ko'ra tilshunoslikda tilning taraqqiyot va o'zgarishlarini o'rganadigan tarixiy lingvistik metodlar (diaxronik lingvistik metodlar), uning nisbatan turg'un, barqaror (sinxronik) holatini tasvirlovchi sinxronik tavsif metodlari, turli tillar orasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganuvchi qiyosiy (tipologik) tadqiq metodlari, tillar orasida qarindoshlik (bir tildan bir necha tillarning keib chiqishi) masalalari va tomonlarini o'rganuvchi genealogik lingvistik tadqiq metodi, ikki va undan ortiq tillarning qorishuvi natijasida yangi bir tilning paydo bo'lishini o'rganuvchi lingvistik chatishuv (interferensiya) metodlari, til hodisalari va birliklarining xilma-xil tajriba-sinov uskunolari vositasida tadqiq qiluvga moslashtirilgan eksperimental lingvistik tadqiq metodlar kabi o'nlab tadqiq usullari va shularga muvofiq ravishda tilshunoslik yo'nalishlari – tarixiy tilshunoslik, tavsifiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, eksperimental tilshunoslik, tipologik tilshunoslik v.h. yonma-yon yashab, bir-birini to'ldirib kelmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tilshunoslik va amaliy tilshunoslik o'rtasidagi farq nima?
2. Lingvistik tadqiq metodlarining vazifalarini tushuntiring.
3. Eksperimental usullarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.

10-mavzu: Xorijiy lingvistika va o'zbek tilshunosligi (2 soat)

Reja:

1. Zamonaviy tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari
2. Xorijiy lingvistikasi

Tayanch so'z va iboralar: zamonaviy tilshunoslik, antroposentrik yo'nalish, kognitiv faoliyat, obyektiv olam

Zamonaviy tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochishda, bugungi fanning asosiy masalalaridan bo'lgan inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, o'y-kechinmalari, orzu-umidlarini ifodalashda til birliklarining rolini antroposentrik yo'nalishda tadqiq etishga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. O'zini o'rab turgan olam bilan doimiy munosabatda bo'lish, voqyelik faktlariga munosabat bildirish, ularni «so'zlovchi shaxs» sifatida ehtiyojlar va manfaatlar nuqtai nazaridan baholash inson kognitiv faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Inson voqyelik bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan, turli voqyea-hodisa, harakat-holat va predmetlarning belgi-xususiyatlarini anglash va aniqlash bilan chegaralanib qolmaydi, balki ularni o'zining jamiyatda egallab turgan mavqeyi, ehtiyojlari, o'z kommunikativ maqsadi va nutqiy sharoitdan kelib chiqib baholaydi. Bunda u jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan qoida va mezonlarga tayanadi.

Inson omiliga yangicha yondashuvlar zamirida yuzaga kelgan «Antropolingvistika jahon tilshunoslari tomonidan tilshunoslikning yangi davri deb baholanmokda va u lingvistik semantika, pragmalolingvistika, kognitolingvistika singari tilning ichki tuzilishini so'zlovchi va tingovchi shaxs bilan bog'lab o'rganuvchi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi e'tirof etilmoqda. Mustaqillik sharoitida o'zbek tilshunoslarning diqqat-e'tibori struktur tilshunoslik bilan birga antropolingvistika yo'nalishlariga qaratilganligi tahsinga loyiqdir»²². Antropolingvistik nuqtai nazaridan voqyelikning asosiy figurasi bo'lgan inson jamiyatda yuz berayotgan voqyea-hodisalar markazida turadi. U obyektiv olamda yuz beruvchi turli voqyea-hodisalar, harakatlardan ma'lum darajada ta'sirlanadi va o'z navbatida o'zi ham ularga munosabat bildiradi. Bu munosabat turli nutqiy vaziyatlarda har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Muloqotning qanday amalga oshishi

²²Нурмонов А., Мадвалиев А., Махкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, № 3. 5-бет.

suhatdoshlarning ma'naviy-madaniy saviyasi, yoshi, nutqiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. «Nutqiy muloqotni faoliyat va o'ziga xos bir sistema sifatida tushunish uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligini sharhlashni talab qiladi. Muloqotning umumiy modelida tarkibiy qismlar o'z aksini topgan. Shunga ko'ra ularni ikki guruhga, ya'ni tashqi va ichki guruhlarga ajratish mumkin. Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so'zlovchining maqsadi, muloqot voqyelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko'p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi».²³ Insonning olam haqidagi hayotiy tajribalari asosida kuzatishi natijalari, asosli, teran mushohadalari falsafiy xulosalarga kelishiga imkon bersa, ijtimoiy hayotdagi turli faktlarga o'z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy fikrlashni yuzaga keltiradi.

So'zlovchi munosabatining qay tarzda yuzaga chiqishi uning jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan ma'naviy-axloqiy mezonlarga amal qilishi, o'z sezgilari, didiga tayanishi, go'zallikni qanday idrok qilishi, aqli va his-tuyg'ulariga bog'liq bo'ladi. Bu esa tilning etika, estetika, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, mazkur sohalar o'zaro kesishgan chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi.

Keyingi yillarda olimlar insonning lisoniy tafakkur hamda muloqot faoliyati tahlili bilan izchil shug'ullanmoqdalar. Shu asosda zamonaviy tilshunoslikda jamiyat va inson nutqi munosabatini o'rganuvchi sosiolingvistika, lisoniy birliklar va muayyan subyekt nutqi orasidagi bog'liqlik haqida bahs yurituvchi pragmatika, nutqning milliy-etnik jihatlarini tadqiq etuvchi etnolingvistika, anglash va bilish, nutqning maqsadi, kommunikativ vaziyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganuvchi psixolingvistika kabi yo'nalishlari maydonga keldi. Bu esa lingvistik tadqiqotlarda til va tafakkur, til va ong aloqalari tabiatiga yanada chuqurroq kirib borish uchun zamin yaratadi. Mazkur yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlarni ma'lum darajada birlashtirib turuvchi lisoniy soha kognitiv tilshunoslikdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Zamonaviy tilshunoslikka izoh bering.
2. Antroposentrik yo'nalish nima?

²³ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. - Самарқанд, 2007. 34-бет.

3. Kognitiv faoliyat nima?
4. Til va ong aloqalari deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent: 1996, 20-30 b.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС, 2010. – 328 с.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
6. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Ҳ.Дадабоев. -Тошкент, 2004.